

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI  
BADIY KASHTA TA'LIM YO'NALISHLARIDA PEDAGOG VA  
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**"DIZAYN (TURLARI BO'YICHA)" YO'NALISHI**

**"DIZAYN LOYIHALASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR"  
MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUА**

**Toshkent 2023**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** O.Kasimov - san.f.n. dotsent.

**Taqrizchilar:** F.Ataxanova – san.f.n. dotsent.  
M. Sobirov – s.f.f.d. dotsent.

*O‘quv dasturi O‘zBA huzuridagi Markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2023 yil 1-maydagi 2- sonli bayonnomasi).*

## **MUNDARIJA**

I. ISHCHI DASTUR .....	3
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI .....	11
III. NAZARIY MATERIALLAR .....	19
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	19
V. KEYSLAR BANKI.....	53
VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	57
VII. GLOSSARIY .....	59
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	65

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag‘i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliv ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliv ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish va shu orqali talabalarning badiiy estetik didini yuksaltirish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta’lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V bob Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan 75-maqсад: Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta’lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o‘quv jarayonining uslubiy ta’minoti, ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta’lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy asoslari, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta’lim va tarbiya jarayonlarini subektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu holatlar oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘kuv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

## **Modulning vazifalari:**

- “Dizayn (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

“Dizayn (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

## **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Amaliy san’atda kompozitsion yechim masalalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- dizaynda badiiy obraz yaratishning zamonaviy konsepsiyalari, usullar, an’analar, muammolarini;
- I.D.Preysler, A.G.Sapojnikov, G.A. va boshqalar faoliyatidagi ilg‘or qarashlarni;
- dizayn obektlarini badiiy his qilish psixologiyasi o‘qitish metodlarining rivojlantirishdagi yetakchi xorij olimlarning xizmatlarini;
- dizayn obektlarini badiiy his qilish psixologiyasini o‘qitish uslublarini;
- turli tashkilotlar brendini yaratish usullarini;
- dizaynda loyihalashga doir eng qadimgi va o‘rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, Qadimgi Rim) ma’lumotlarni;
- dizayn-loyihalashda an’analar va innovatsiyalar muammosini;
- dizayndagi trendizm tushunchasini;
- reklama dizaynida tarixiy tajribalarni;
- reklama dizaynida rangning insonga ruhiy ta’sirini;
- dizayn loyihalashda ashyolar va texnologiyalarni;
- O‘zbekistonda XX asrda reklama dizayni fanining kirib kelish bosqichlarini;
- Mustaqillik davrida O‘zbekistonda va jahonda reklama dizayni fanini rivojlanishini ***bilishi*** kerak.
- turli konsepsiylar asosida dizayn-loyihalashdagi innovatsion jarayonlarni tushuntirish;
- dizayndagi kolloboratsiyalar- innovatsion loyihalash metodidan foydalanish;
- dizaynga ekologik yondashuvning innovatsion shakllarini qo‘llash;
- yangi zamonaviy texnologiyalarni talabalarga yetkazish;

- modernizatsiya jarayonlari va ularning ijobiy natijalarini pedagogik faoliyatga tadbiq etis;
- dizayn asarini badiiy idrok etishda rang, assotsiatsiyalar, instinktlarning ta'sirini o'rganish;
- dizaynga yondashuvning zamonaviy konsepsiylarini tahlil etish;
- emotsiyal tarzda turlicha ta'sir etuvchi dizayn obektlari loyihalarning konsepsiyasini ishlab chiqish;
- reklama dizaynida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;
- reklama dizaynida sifatli loyihalarni yaratish uslublaridan samarali foydalanish ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi lozim.
- an'anaviy amaliy san'at, me'morchilik va hunarmandchilikdagi innovatsiyalarni tahlil etish;
- dizaynda loyihalashning o'qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg'onish davri rassomlarining ishlarini tahlil qilish;
- XVIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizish dizaynni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlarni o'rganish;
- hozirgi zamon ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalari innovatsion tajribalarini ta'lim jarayoniga qo'llash;
- real dizayn obektlarining emotsiyal ta'sirini o'rganish, tahlil qilish.
- yangi kompozitsion g'oyalar ustida ishlash, ijodiy tafakkur yuritish va badiiy talqin etish;
- P.P.Chistyakov, D.N.Kardovskiy larning pedagogik qarashlarini baholash;
- Reklama dizaynida xorijiy usullarni qo'llash ***malakalariga*** ega bo'lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- dizayn loyihalashda ashyolar va texnologiyalar, turli konsepsiylar asosida innovatsion jarayonlarni tashkillashtirish;
- ekologik yondashuvning innovatsion shakllarini joriy etish;
- dizayn obektlarining emotsiyal ta'sirini o'rganish;
- dizayn obektlarini badiiy his qilish psixologiyasini o'qitish metodikasi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotda qo'llash;
- reklama dizaynida sifatli loyihalarni yaratish uslublarinidan samarali foydalanish;
- turli tashkilotlar brendini yaratish usullarini tadbiq etish ***kompetensiylariga*** ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Dizayn loyihalashda innovatsion yondashuvlar” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy ta’limning muhim ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutildi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Dizayn loyihalashda innovatsion yondashuvlar” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Raqamlı universitet” modeli va oliv ta’lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta’lim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning oliv ta’limdagи o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar badiiy ta’limning ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## **MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	Dizaynning vujudga kelishi. uning tarixi va maktablari	2	2	
2.	Dizayn turlarida kompozitsiya yaratish, badiiy tahlil	2	2	
3.	Dizaynni loyihalash	2		2
4.	Dizayn sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari	4		4
5.	Dizayn loyihalashda chizmatasvir va rangtasvirning o‘rni	4		4
	<b>Jami:</b>	<b>14</b>	<b>4</b>	<b>10</b>

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Dizaynning vujudga kelishi. uning tarixi va maktablari.**

**(2 soat)**

Dizayn san’ati va uning tarixi, maktablari. Predmetning vazifasi va mazmuni. Dizayn san’ati rivojlanishining asosiy bosqichlari. Dizayn turlari. Hunarmandchilik va sanoat. Buyumlar olami, uning o’tmishi va bugungi kuni.

Ma’lumki, inson tomonidan yaratilgan barcha buyumlar badiiy ijod mahsuli xisoblanadi. Taraqqiyot jarayonida ilk mexnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlarini mukammallashtirish bilan birga insonda ilk bor shakllar, ularning go‘zalligi haqida fikrlash xususiyati ham rivojiana bordi. Keyinchalik ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yangi materiallar, yangi shakllar kashf etildi. Badiiy loyihalash sohasi rivojlanishining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Rassom-dizaynerlar ish uslubining takomillashishi bilan bir qatorda ularga qo‘yilgan vazifalar tobora murakkablashib bormoqda. Bu zamon talabi. Ijodkor esa hamisha zamon bilan hamnafas bo‘lishi zarur.

### **2-mavzu. Dizayn turlarida kompozitsiya yaratish, badiiy tahlil (2 soat)**

Kompozitsyaning badiiy vositalari. Kompozitsiyada fazoviy muhitni his qilish. Shakl va hajm tasvirida obrazni his qilish ruhiyatiga ta ’siri. Kompozitsion yechim va qoidalar. Tasviriy san’atda nur-soya xususiyatlari. Kompozitsiya qurilishlari va badiiy yechim. Kompozitsiyada badiiy fikrlash xususiyatlari. Kompozitsiyada kolorit yechimi va inson ruhiyatiga ta’siri. Kompozitsiyani ishlashda tassavvur, anglash, ko‘rish va his etish qobiliyati. Kompozitsiyada ko‘nikma, mahorat va kuzatuvchanlik badiiy tuyg‘ularini rivojlantirish. Kompozitsiyada shakl va hajm hosil qilishni his etish. Kompozitsiyani AKT orqali tahlil usullari.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Dizaynni loyihalash.**

**(2 soat)**

Dizayn loyihalashda ashyolar va texnologiyalar, turli konsepsiylar asosida dizayn-loyihalashdagi innovatsion jarayonlarni tushuntirish. Yangi zamonaviy texnologiyalarni talabalarga yetkazish. Dizayn-loyihalashda an’analalar va

innovatsiyalar muammosi. Dizayndagi trendizm tushunchasi. Dizayndagi kolloboratsiyalar – innovatsion loyihalash metodi sifatida. Dizaynga ekologik yondashuvning innovatsion shakllari. An'anaviy amaliy san'at, me'morchilik va hunarmandchilikdagi innovatsiyalarni tahlili.

## **2-mavzu. Dizayn sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari (4 soat)**

Dizayn sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari. Reklama dizaynida sifatli loyihalarni yaratish uslublari. Turli tashkilotlar brendini yaratish usullari. Reklama dizaynida tarixiy tajriba. Reklama dizaynida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish. Reklama dizaynida rangning insonga ruhiy ta'siri. Reklama dizaynida xorijiy usullarni qo'llash. Libosni modellash. Tarixiy va zamonaviy libos uslublaridan foydalanib yangi tur va uslublarni yaratish, o'quvchilarda ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirish. Kolleksiyalash. Tasvirlashning ixtiyoriy usulini (texnikasini) qo'llab sport uslubidagi libos kompozitsiyani yaratish. Etno uslubidagi libos kompozitsiyani yaratish.

## **3-mavzu. Dizayn loyihalashda chizmatasvir va rangtasvirning o'rni. (4 soat)**

Chizmatasvir va rangtasvirni didaktik prinsiplari. Chizmatasvir va rangtasvirni o'qitishning asosiy qonun-qoidalari. Rangtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g 'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, ko'z, ong va sezgi organlarini shakllantirish. Realistik rasm chizish san'ati, borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantirish. ijodiy yondashishni tarbiyalash. Chizmatasvir va rangtasvir fani uchun ashyolar. Tekislikni joylashtirish. Yorug'-soyani topish, shtrixlash. Issiqsovq ranglardan foydalanib natyurmort ishslash.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, badiiy estetik didni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rileyotgan kompozitsiyaning badiiy yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (kompozitsiya yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.**

### **“Aqliy hujum” metodi**

#### **Aqliy hujum usuli**

**Aqliy hujum** (breynstroming - aqllar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

#### **Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari**

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

#### **“SWOT-тахлил” методи.**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson
<b>W</b>	Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir
<b>O</b>	Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san’at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san’at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan tasvir orqali o‘z g‘oyasini, fikrini bayon eta oladilar.
<b>T</b>	To‘siqu (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo‘lmasa chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.

### “Baliq skeleti”

Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. 4



**Мисол: “Рассом ижодкорлар” мавзусидаги матн.**

**Биламиз. Билишни истаймиз? Билиб олдик. (БББ)**

<b>Bilamiz</b>	<b>Bilishni istaymiz</b>	<b>Bilib oldik</b>
1.Rassom yangi g‘oyada asar yaratadigan inson.	1.Xar bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi?	Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo‘llay oladigan insonni rassom deymiz.
2.Rassomlar tasviri y vositalardan, chiziqlar shakllar, vositalarni o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma’naviy estetik tarbiyalovchi	2.Dunyodagi g‘oyaviy kompozitsilarni tasvirla oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kiritса bo‘ladi.	R.Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar uchun amaliy metodik o‘quv jarayonidagi rivojlanishida foydalaniilmoqda.
3.Rassomlar asarida insonlarni ma’naviy-ma’rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir.	3.Rassom bo‘lish uchun nima qilish kerak?	O‘ral Tansiqboyev manzaralarini butun o‘zbekistondagina emas balki yevropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar.
4.Rassom bu tinmay izlanuvchi inson	4.Ijodiy asarlarni tasvirlashni payoni bormi?	Abdulhaq Abdullayev portret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur.
5.Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	5.Kompyuterda ijodiy asar yaratса bo‘ladimi ?	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
6.O‘zbekistonlik rassomlar	O‘zbekistonda taniqli metodik qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan kimlarni bilasiz?	O‘zbekistonda taniqli metodik qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: B.Boymetov,M.Nabiyev, O.Egamov, R.Xudayberganov, R.Djalilova

### Интеръерда натюрмортни аks этириш

Интеръер -

xonani ichki ko‘rinishini perespektivada aks etiriladi. Tasviri y san‘at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko‘rinishlarda fon vazifasini o‘taydi.

Interyerda uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Interyer - ichki me’moriy muxit xolati orqali xonardon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot

holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Interyerda natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko'rsatilgan.

Interyer, kompozitsiyasi mavzusidatasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash.

### Кейс-стади” методи

**«Keys-stadi»** - inglizcha so‘z bo‘lib, («catse» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruva fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qayerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

#### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagи asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘silqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo’llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

## “Insert” metodi.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmalarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san’at” bo‘yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo‘yicha o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:


Belgililar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar professor - o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Брифинг” методи.

“Brifing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo‘yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press - konferensiY.

### O‘tkazish bosqichlari:



Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o‘tkaziladi.

### “Portfolio” metodi.

“Portfolio” – (ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv - metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

<b>Faoliyat turi</b>	<b>Ish shakli</b>	
	<b>Individual</b>	<b>Guruhiy</b>
Ta'limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o‘zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-mavzu. Dizaynning vujudga kelishi. uning tarixi va maktablari. (2 soat)**

**Dizayn san'ati va uning tarixi, maktablari. Predmetning vazifasi va mazmuni. Dizayn san'ati rivojlanishining asosiy bosqichlari. Dizayn turlari. Hunarmandchilik va sanoat. Buyumlar olami, uning o'tmishi va bugungi kuni.**

Ma'lumki, inson tomonidan yaratilgan barcha buyumlar badiiy ijod mahsuli xisoblanadi. Taraqqiyot jarayonida ilk mexnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlarini mukammallashtirish bilan birga insonda ilk bor shakllar, ularning go'zalligi haqida fikrlash xususiyati ham rivojlana bordi. Keyinchalik ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda yangi materiallar, yangi shakllar kashf etildi. Badiiy loyihalash sohasi rivojlanishining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Rassom-dizaynerlar ish uslubining takomillashishi bilan bir qatorda ularga qo'yilgan vazifalar tobora murakkablashib bormoqda. Bu zamon talabi. Ijodkor esa hamisha zamon bilan hamnafas bo'lishi zarur.

Amaliy san'atning ilk qadamlari badiiy ijodkorlik, texnika madaniyati va asosan tasviriy san'atga bog'liq holda boshlandi. Amaliy san'atning qonuniyatlaridan biri uning boshqa san'at turlari bilan birga rivojlanish, takomillashishdir. Yaratilgan har bir asarning (buyumning) shakli, bezagi, fakturasi, rangi turli xalqlarning iqlimi, yashash tarzi, urf-odatlari va madaniyatiga chambarchas bog'liqdir.

XVII-XIX asr Evropa va Osiyo davlatlaridagi milliy amaliy san'at maktablari boshqa davlatlar san'ati ta'siridan chetda qolmagan. Aksincha ular biri ikkinchisiga bevosita bog'liq tarzda rivojlangan. Shunday qilib, ma'lum bir xalqqa xos milliy madaniyat elementlarini ikkinchi bir xalqning idish-tovoqlari, kiyim-kechaklari va boshqa buyumlarining yaratilish uslubida uchratish mumkin.

Ma'lumki, turli xil buyumlar, jixozlar amaliy san'atning butun tarixi davomida xalq ustalari tomonidan mohirlik, katta did – saviya bilan yaratilib kelindi. Faqat o'tgan asrning boshlarida texnika taraqqiy etib, ustalar mexnati ma'lum ma'noda, o'z-o'zidan chetga surildi. Ikkinchidan rassom bilan bajaruvchi va xaridor o'rtasidagi aloqa o'zgardi. Bundan tashqari buyumlarning badiiy loyixasi sustlashdi. Xullas, texnika ishlab chiqarish texnologiyasining murakkablashuvi oxir oqibatda rassom- dizaynerning ish uslubini qayta ishlab chiqishga va ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokini o'zgartirishga olib keldi. Rassom-dizayner quyidagi jamoaga a'zo bo'ldi: injener-loryihachi, texnolog. Bu mutaxassislar jamoasida u arxitektor vazifasini bajaruvchi bo'ldi, ya'ni buyumni

idrok etib, uning loyihasini chizibgina qolmay, balki uning yaratilishiga, ishlab chiqarilishiga ham bosh bo'ldi. Lekin amaliy san'at ayrim sohalarining saqlanib qolishi bejiz emas edi. Zero, bunda buyum yaratilishining barcha muammolari hal qilinadi. Bunga idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, turli taqinchoqlar va boshqalar misol bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, dekorativ amaliy san'at rivoji va takomilida tarixiy janrlarning u yoki bu ko'rinishda saqlanishi tabiiy xol.

«Dizayn» inglizcha atama bo'lib, chizma, tasvir, loyiha ma'nosini bildiradi. Bunga qadar narsalarni loyixalashtirish «badiiy konstruksiyalash», narsalarni yaratish nazariyasi esa «texnik estetika» deb atalib kelinardi. Shu tariqa «Dizayn» so'zi yasash, ixtiro tushunchalarini vujudga keltiradi; «dizayner» - rassom, konstruktor, «Dizayn-forma» - buyumning tashqi ko'rinishi, shakli ma'nolarni anglatadi.

Hozirga qadar dizayn va uning maqsadi, imkoniyatlari haqida turli bahslar yuritilgan. Chunonchi italyan dizayneri D.Ponti dizaynning maqsadi go'zal shakllar, narsalar dunyosini yaratishdan iborat deb hisoblaydi. Dizaynning boshqa bir nazariyotchisi T.Maldonado o'zgacha fikrni qo'llab quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, iste'mol predmeti badiiy asar vazifasini bajara olmaydi.

Hozirda dizayn bozor extiyojlari va talablariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib qolmoqda. Darhaqiqat, nemis arxitektori va dizayneri Valter Gropius ta'kidlaganidek, «har bir davr muqarrar ravishda yangi shakllar va qadriyatlar yaratadi, shu bilan birga ularni buzadi ham ...»

Tarixiy o'zgarishlar, taraqqiyot jarayonida o'z-o'zidan buyumlarning qiyofasi va ularning tuzilishi ham o'zgarib bordi. Holubki, ana shu buyum va ashylarni tayyorlovchilar, hunarmandlar xamisha an'analarga bo'ysinar edilar. Binobarin, mahorat va milliy an'ana avloddan-avlodga o'tib, takomil topib keladi. Demak, buyumlar va ashylarni tayyorlash usuli bilan birga, ularning milliy shakllari ham meros bo'lib o'tadi.

Ibtidoiy jamoa davri san'ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg'ularining paydo bo'lishi, rivojlanish va takomildan boshlab, er yuzida birinchi davlatning yuzaga kelishigacha bo'lgan davr san'atini o'z ichiga oladi, o'rganadi va taxlil etadi.

Ibtidoiy jamoa davridan bizgacha ko'plab ashayoviy dalillar: mehnat va ov qurollari, uy-anjom va turli hil bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil makonlarning qoldiqlari va boshqalar etib kelgan. Bular, o'z-o'zidan ibtidoiy jamoa kishisining g'oyaviy estetik va diniy - e'tiqodiy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoa kishilarining madaniyati, ularning dunyoqarashlari, tafakkur

tushunchalari haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy va madaniy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadlarining qoldiqlari, g‘or va erto‘la devorlariga chizilgan surat va bo‘rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o‘rganishning muhim manbalari hisoblanadi.

Zamonlar o‘tib madaniyat o‘zining tadrijiy taraqqiyotiga yuz tutdi. San’atning yuzaga kelishi insonning ob’ektiv voqelik to‘g‘risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o‘z avlodi tajribalaridan bahramand bo‘lishiga olib keldi. Bu uni turli kuchlarga qarshi izchil kurashishga da’vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Yuqori poleolit davrida odamlar yashagan manzillarda tosh, suyak, shox va loydan yasalgan har hil haykalchalar ham uchraydi. Topildiqlar shundan dalolat beradiki, haykaltaroshlikda hayvonlar tasvirini yasash va yoxud turli ashylarga jonivorlar suratini solish keng o‘rin egallaydi. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali poleolit davrida ko‘p uchraydi. Shuningdek, bu davrda dekorativ amaliy san’at namunalari ham keng tarqala boshlagan. Ayni paytda buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga ehtiyoj bo‘lgan va bu talab tez sur’atlar bilan ortib borgan. Bu hol arxeologlar topgan va topayotgan ashayoviy buyumlarda namoyon bo‘lmoqda.

Ma’lumki, mezolit (o‘rtta tosh asri) davrida mehnat va ov qurollarining ichham, qulay bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilgan. Odamlar zamonlar o‘tishi bilan yog‘och, qamishdan foydalanib, o‘zlariga kerakli buyumlar yarata boshlaganlar. San’atimiz tarixini kuzatar ekanmiz, xudi shu asrda jang voqealari, ovchilikni aks ettiruvchi murakkab kompozitsiyalar yaratilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Neolit yoki yangi tosh asrida ishlab chiqarish jarayoni kuchaya bordi. Shu bilan birga, kishilarning ma’naviy olami, dunyoqarashi ham kuchaya bordi. Toshni qayta ishlash, uni pardozlash, shu asosda juda nozik buyumlar yaratishga ko‘proq e’tibor berila boshlandi. Kulolchilikning paydo bo‘lishi ham yangi tosh asriga to‘g‘ri keldi va tez sur’at bilan rivojlandi. Bu davrning ko‘zga yaqqol tashlanadigan xususiyatlaridan biri-sopol va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezashning keng tus olganligidir. Loy, yog‘och, shox va suyaklardan hamda qisman toshdan xaykallar ishlandi, bejirim san’at asarlari yaratildi.

Eramizdan avvalgi 3 ming yillik o‘rtalariga kelib, odamlar misni qalay, qo‘rg‘oshin, rux va surma bilan eritib, bronza tayyorlashni o‘rgandilar. Natijada bronza turli xil qurollar, yaroq-aslaha, zebu-ziynat yasash uchun asosiy xom ashyo bo‘lib qoldi. Ayni shu paytdan er yuzida Bronza asri boshlandi. San’at tarixidan ma’lumki, bu asrda amaliy-bezak san’ati yanada rivojlandi. Endilikda sopol buyumlardan tashqari hayotda mis, oltin va bronzadan ishlangan buyumlar ibtidoiy

jamoa kishisi xayotida muhim o‘rin egallay boshladi. Turli taqinchoqlarni o‘yma chiziqli naqshlar bilan bezash odat tusiga kirdi. Ayrim mintaqalarda kulolchilik dastgoxlarining vujudga kelishi sopol buyumlar shaklining tekis va ko‘rimli bo‘lishini ta’minladi. Haykaltaroshlar loydan tashqari, metall, yog‘ochdan ham keng foydalana boshladilar.

Kavkazda metall quyish va qayta ishlash nihoyatda rivojlandi. Kurgon osti qabrlaridan topilgan kumush, oltin va bronzadan ishlangan bezak buyumlari, uy-anjomlari, quroq-aslahalar o‘zining tuzilishi va badiiy bezatilishi bilan xarakterlidir. Idishlar yuzasi bo‘rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda ov manzarasi, ko‘p figurali kompozitsiyalar uchraydi.

O‘rta Osiyoda bronza asrining paydo bo‘lishi eramizdan avvalgi 3 ming yillik o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Bu erlarda metalldan buyum ishlash keng tarqaldi. Jumladan, Farg‘onadan topilgan bilakuzuklarda qo‘y va sher tasvirlari o‘ta nozikligi, bejirimligi bilan diqqatga sazovordir. Bronza asrida O‘rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go‘zal bo‘lishini ta’minladi. Shu jihatdan Chustda topilgan qizil fonga qora bo‘yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, eramizdan avvalgi 1 minginchi yillarda O‘rta Osiyoda dastlabki ibtidoiy davlatlar shakllana bordi. Xudi shu asrda Zardushtiylik (er.av. VII asr) dini soyildi. Uning dasturi Avesto esa shu din qarashlarini, uning aqidalarini targ‘ib etadi. Qadimgi O‘rta Osiyo san’ati va madaniyatini o‘rganishda bizgacha saqlanib qolgan qal’a, saroy, turar joy va qabrlar bilan birga zardushtiylik dini bilan bog‘liq bo‘lgan turli ossuariylar (astadonlar) deb ataluvchi odamlar suyagini saqlash uchun mo‘ljallangan sopoldan yasalgan idishlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, inson ijodiy tafakkuri bilan yaratilgan barcha buyumlar badiiy ijodning mahsulidir. Tarixiy taraqqiyot mobaynida buyumlarning qiyofasi va tuzilishi ham o‘zgarib borgan. Xolbuki, ana shu buyumlarni tayyorlovchilar, hunarmandlar hamisha an’analarga bo‘ysunar edilar. Mahorat avloddan avlodga, otadan o‘g‘ilga, o‘g‘ildan nevaraga o‘tib kelardi. Buyumlarni tayyorlash usuli bilan birga ularning o‘ziga xos shakllari ham meros bo‘lib o‘tardi.

Shunga qaramasdan ayni bir hil buyumlar vaqt o‘tishi bilan butunlay yangicha ko‘rinishga, yangicha tuzilishga ega bo‘lib boradi. O‘z-o‘zidan anglashiladiki, bizgacha saqlanib qolgan turli xil jihozlar, buyumlar o‘zining qadimiy tarixiga ega edi. Misr yodgorliklari buning yaqqol dalilidir.

Binobarin, uzoq tarixga ega bo‘lgan sivilizitsiya davri buyumlari turli xil jixozlash tarixida alohida o‘rin tutadi. Biz buyumlar olami haqidagi qisqacha ma’lumotimizni aynan shu tarixdan boshlaymiz. Binobarin, bizgacha saqlanib qolgan xilma-xil asori atiqalar qadimgi Misr sivilizatsiyasidan yaxshi tasavvur beradi. Qadimda kishilarning ko‘milgan jasadlari bilan birga, ularga tegishli buyumlarni xam ko‘mganlarki, bu hol bizga uzoq avlodlarning turmush tarzidan, ular san’atidan atroflicha ma’lumot beradi. Marhum bilan ko‘milgan mazkur buyumlar go‘yo vafot etgan kishilarning narigi dunyodagi hayoti uchun mo‘ljallangan edi. Misrning qumli tuprog‘i va quruq iqlimi bu kabi turli – tuman buyumlarning, jixozlarning yaxshi saqlanib qolishiga imkon bergan.

O‘zining haykallari, qum bosgan g‘ordagi qasrlari, shuningdek, papirus qog‘oziga chizilgan yozuvlari bilan mashhur bo‘lgan bu qadimgi sirli sivilizatsiya uzoq vaqtgacha afsonaviy mo‘jiza bo‘lib kelgan edi.

Qadimgi Misr xunarmandchiligi namunalari miqdori boshqa olimlarning topgan buyumlari hisobiga sekin-asta ortib bordi va asrlar osha avlodlarning ma’naviy mulkiga aylanib qoldi. Shubhasiz, bu asori-atiqalar bizda nihoyatda katta qiziqish uyg‘otadi. Shu tariqa aytish lozimki, qadimgi Misrda biz uchun an’anaviy bo‘lib qolgan odatdagi hisobsiz buyum jixozlar, mebellar, uy-ro‘zg‘or ashyolari, turli asboblar, kiyim-boshlar va boshqalar shular jumlasidandir. Ular qadimgi Misr xonardonlarining buyumlar muhitini tashkil etdi.

Ma’lumki Misr madaniyati juda murakkab va ziddiyatli. Uning o‘z tarixi, o‘ziga hos uslubi bo‘lib, bu sivilizatsiya asri qoldirgan meros nihoyatda bebahoh. Ayni taraqqiyot rivojlangan davridan so‘ng, san’at olamida betakror va noyob narsalar ko‘p qolgan bo‘lib, ularning har biri o‘z qiyofasiga, o‘z san’at xususiyatiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Binobarin, bu san’at namunalari o‘sha vaqtdayoq qo‘shni mamlakatlarga tez tarqaldi, ularning madaniy taomillari va an’analariga kirib qoldi.

Eramizdan oldingi V asrga kelib o‘tmishning yana bir boshqa buyuk sivilizatsiya markazi – Gretsianing antik davridagi gullab-yashnashi boshlandi.

Gretsianing siyosiy va madaniy markazi Afina edi. U har jihatdan shiddat bilan taraqqiy topdi. Afinaning imoratlari oddiy tarashlangan toshdan qurilgan, devorlar ohak bilan oqlangan. Kichik-kichik xonalarda ustiga choyshab yopilgan o‘rin to‘shak, stul, kursilar, sandiqlar bo‘lgan. Bundan tashqari chiroyli ko‘zachalar, devorlarga osilgan qurollar, oddiy moychiroq va manqallar uyning bezagi, chiroyini tashkil etgan.

Gretsiya o‘zining bemisl taraqqiyot davrini o‘tab bo‘lgandan keyin unda badavlat xsusiy uylar paydo bo‘la boshladi.

Grek madaniyati estetik zavqlanishning yangi-yangi sahifalarini ochdi. Arxitektura inshootlaridagi ko‘tariluvchi va ko‘taruvchi narsalarni qarama-qarshi qo‘yish kabi mutlaqo yangi manbalari shular jumlasidandir. Binoning tayanchlari (ustunlar, devor qismlari)ga ancha jiddiy tus berildi, ularni jonli organizmning muskullari bilan qiyoslash mumkin edi. Greklarning arxitektura inshootini organizm sifatida anglagan holda chuqur realistik tushunish estetikasi butun san’at obidalari olamiga tarqaldi.

Bu jixatdan greklar stuli, ayniqsa, alohida ahamiyatga sazovordir. Klismos deb ataluvchi bu stullar bizning hozirgi stullarimizni aynan eslatib turadi. Bu o‘rinda, biz, buyumlarning ichki strukturasini, uning kompozitsion o‘zagini topishdan iborat chinakkam greklarga hos intilish namunasiga duch kelamiz. Chunonchi, o‘sha davrdagi arxitektura inshootlari kabi kundalik ro‘zg‘or buyumini ham greklar konstruktiv tafakkurning o‘ziga hos modeli deb qarash mumkin.

Har qanday ehtiyojni qondiruvchi mashhur grek keramikasi bu jihatdan diqqatga sazovordir. Greklar ko‘zasi yoki idishning har qanday ko‘rinishi yoki xili o‘z vazifasiga ega. Binobarin, har bir idish o‘zining maqsadga muvofiq aniq, mukammal shakliga ega. Bu narsa asrlar osha kishilar e’tiborini qozonib keldi. Hamma buyumlar ichki tomondan odamga qiyoslanardi.

Misr san’ati uchun xarakterli bo‘lgan xaykaltaroshlik va me’morchilik shakllarining yaxlitligi greklardagi aniqlik va izchillik bilan almashdi.

Greklar uchun barcha ko‘zga ko‘rinib turgan narsalar muhim va zarur bo‘lgan, chunki buyumlar olami yaxlit va uzviy tarzda idrok etilgan. Bu hol faqat bezagiga asoslanib qolmay, shu bilan birga, mantiq va konstruktivlikka, plastika va buyumning uzviyligiga bo‘lgan umumiylar munosabatga asoslangan edi.

Rim davlati o‘z hayotini taxminan eramizdan avvalgi VI asrda boshlagan. Rimliklarning Markaziy Evropani, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqini zabit etishi san’at, xayot taraqqiyotida o‘ziga hos jarayon ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin Rimning madaniy hayotida, taraqqiyotida greklar, albatta, alohida o‘rin tutadi.

Vaqtlar o‘tishi bilan Rim Afinani har jihatdan ortda qoldirdi, uy-joy jihozlari texnologiyasi ancha sodda edi. Manqallar qizdirilgan ko‘mir bilan isitilar, yoritish moyli yoritgichlarni olmay yoqishga asoslangan edi. Bularning barchasida texnik yangiliklar bor edi. Masalan, ichimliklarni isitishga mo‘ljallangan turli qurilmalar diqqatga molik. Shulardan biri outepsa (antik samovar) dir.

Hurmachaga o‘xhash baland idishda ikkita ochiq joy bo‘lib, bittasiga ko‘mir, ikkinchisiga suyuqlik solingan. Unga yon tomonidan mahsus teshik orqali qizdirilgan ko‘mir tashlanib, suyuqlik cho‘mich yordamida solinar edi va quyib olinardi, outepsaning jo‘mragi yo‘q edi.

Oshxona idishlari puxta o‘ylab yasalgan. Hatto oddiy chelak ham o‘zining barcha detallari (qismlari) bilan ayni maqsadga muvofiq yasalgan. pachoqlanish va egilish ehtimoli ko‘proq bo‘lgan yuqori qismi kengayib, xuddi shu joyiga tutqich o‘rnatilgan. Hozir ham chelak ana shu tarzda yasaladi.

Ba’zan buyumlarning zo‘r bo‘rtma shakli hashamlarga qiziqish, nazarimizda beqiyos edi. Stolning marmardan o‘yib ishlab yasalgan tayanchi hayvon oyog‘ining shakliga ega bo‘lishi nazarda tutilgan. Asosiga yaqin borganda u tirnoqli panjaga o‘xshab ketsa, yuqorida esa gul yaproqlari orasidagi bola qiyofasiga ega bo‘lgan gulga aylanadi.

Bir naqsh turining boshqasiga, o‘simglikning odam qiyofasiga, odam qiyofasining arxitektura detaliga ko‘chishi devorga naqsh solishda ham qabul qilingan.

Buyumlarning belgili vazifasi harbiy texnika buyumlariga majoziy obrazli munosabatni ham vujudga keltirgan. Biroq turmushda ishlatilmaydigan mashina va mexanizmlar hali estetik mazmunga ega bo‘lmagan. Keyingi asr mobaynida uylar va ularning anjomlari, mebel va asboblar qanchalik o‘zgarib ketgan bo‘lmasin, ularning ko‘plari o‘zining uzoq ajdodlari-antik hunarmandlar tomonidan ishlangan buyumlarning avlodlari bo‘lib keldi va bo‘lib kelmoqda.

Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda O‘rta Osiyodagi badiiy hayat va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan «Amudaryo boyligi» (Oks boyligi) muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan aravacha va quollar diqqatga sazovordir. Bu buyumlarda uchraydigan tasvirlar birmuncha shartli bo‘lsa ham, lekin nihoyatda ifodali ishlanganligi bilan ajralib turadi. Detallari aniq va tugal ishlanishi bilan xarakterlanadi. «Jangchi Sak» bo‘rtma tasvirida ayni fazilatlar mujassamlashgan. O‘rta Osiyo erlarida topilgan ko‘pgina sopol buyumlar kulolchilik dastgohlarida ishlangan va maxsus pechlarda pishirilgan. Ular shu asarlarda kulolchilik hunarmandchiligi yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Bular ichida geometrik naqshlar solinib bezatilgan idishlar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Markaziy Qozog‘iston qabrlaridan uch oyoqqa o‘rnatilgan bronzadan yasalgan qozonlar topilgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda ishlangan bu

qozonlarning tepe qismi hayvonlar tasviri-ko‘proq tog‘ echkisi xaykali bilan bezatilgan. Bu erdan topilgan taqinchoqlarda yovvoyi qush, kiyik va echki tasvirlari uchraydi.

Makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) eramizdan avvalgi IV asrlarda Axmoniylar davlatini tor-mor etib , O‘rta Osiyo erlarining ko‘pgina qismini tasarrufiga olgan. Faqat Xorazm, Farg‘ona va Sirdaryo bo‘yidagi ko‘chmanchi qabilalargina o‘z mustaqilligini saqlab qolganlar.

Eramizdan avvalgi III asr o‘rtalarida Parfiyona davlati (Turkmanistonning janubiy-g‘arbiy tomoni va Eronning shimoliy-sharqiylar qismlari) O‘rta sharqning yirik davlatlaridan biri sifatida tanildi. Arshakiylar sulolasi boshqargan davrda esa jaxondagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Parfiyona san’atini o‘rganishdan ham tanga yuzasiga ishlangan bo‘rtma tasvirlar keng o‘rin egallaydi.

Yangi asrning boshlarida O‘rta Osiyoning har tomonlama rivojlangan markazlardan biri – Xorazm edi. Qo‘yqirilgan qal’a, Gaur qal’a, Tuproq qal’a harobalari, u erlardan topilgan tasviriy va amaliy san’at namunalari shu davrlarda (ilk feodalizm, ya’ni V asrga qadar ) Xorazmda ijtimoiy xayotning birmuncha intensiv bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

Qo‘yqirilgan qal’adan topilgan kulolchilik buyumlari ham diqqatga sazovordir. Sopoldan ishlangan suv idishlari, turli ko‘zalar juda nafis ishlangan. Gaur qal’a saroyi qoldiqlari ham yanada diqqatga sazovordir.

I asrning boshlariga kelib, Grek-Baktriya podsholigining parchalanishi natijasida vujudga kelgan mayda davlatlar birlashtirilib Kushon davlati tashkil etildi. Unga O‘rta Osiyo xukumdori Kudzula Kadfiz boshchilik qildi. Bu davrda Buddizm dini keng tarqaldi. Buddizm bilan bog‘liq bo‘lgan ibodatxonalar vujudga keldi, xaykallar yaratildi, devoriy suratlar ishlandi. Kushon davri san’atini bilishda Xolchayonda (Surhandaryo hududi) saqlanib qolgan bino qoldiqlari hamda tasviriy va amaliy san’at namunalari muhim o‘rin egallaydi.

Ayritomdan (Termiz yaqinida) topilgan toshdan ishlangan rel’eflar va so‘ngi Kushon davlati memorchilik xarobalari bu erda Buddizm keng yoyila boshlaganligini ko‘rsatadi.

Dalvarzintepa va Qora tepadagi (Surxondaryo viloyati) Buddizm ibodatxonalaridan topilgan ganch xaykallar ham alohida hususiyatlarga ega. Bu haykallar natural kattalikda ishlangan.

Amaliy san’at namunalari ham diqqatga sazovordir. Yangi asr boshlarida kulolchilik, zargarlik va metallardan buyumlar yasash (kumush, oltin va bronza)

san'ati o'zining nafisligi bilan diqqatni tortadi. Ayniqsa, metall buyumlar yasash va ularning yuzasini bo'rtma tasvirlar bilan bezash san'atida O'rta Osiyolik ustalar katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Ko'pgina arxeolog va san'atshunoslarning mehnati tufayli O'rta Osiyo xalqlari san'atining o'tmishi boy va serqirra ekanligi isbotlab berildi. O'rganish esa xali tugagani yo'q. So'zsiz, O'rta Osiyo san'ati qadimiy davrga oid yangi-yangi ma'lumotlar bilan yanada boyitib boriladi.

## **2-mavzu. Dizayn turlarida kompozitsiya yaratish, badiiy tahlil (2 soat)**

**Kompozitsiya vositalari.** Bosma reklamaga ham o'lchamlik va uyg'unlik baxsh etadigan kompozitsiyaning asosiy vositalari proporsionallik, miqyos (masshtab), ritm, metr, kontrast va nyuans, simmetriya va asimetriya sanaladi.

**Proporsionallik** reklamaning ayrim elementlari va uning butun shakli o'rtasidagi hamo'lchamlilikni ifoda etadi. Qismlarning proporsional o'zaro nisbatlarini variantlab, reklamaga dinamika, keskinlik baxsh etish, ya'ni uni emotsiyal bo'yodkor qilish mumkin. Umuman, proporsiya umumiy muvofiqlashtirish, bosma reklamaning hamo'lchamliligi, yoki boshqacha aytganda, garmonizatsiya (uyg'unlashtirish)<sup>1</sup> vositasi sanaladi.

**Miqyos** reklama e'loni kattaligining ma'lum o'lcham bilan o'zaro nisbatini belgilaydi. Miqyos - nisbiy tushuncha. Buni ko'cha reklamasida, shuningdek bosma nashrlardagi reklamada yaqqol ko'rish mumkin.

**Ritm** - kompozitsiyaning, reklama e'loni elementlarini ajratish va bog'lashni, ularni takrorlash, o'zaro almashtirish, orttirib yo kamaytirib borish yo'li bilan ta'minlab beradigan vositasi.

**Metr** yoki metrik tartib – ritmnинг eng sodda ko'rinishi, bir xil elementlarni teng oraliqda takrorlashdan iborat. Metrik almashtirishlarda qonuniyat ko'zga taghshlanib turishi juda muhim. Aks holda tasodifiylik va xaotiklik hissi yuzaga keladi.

**Kontrast** reklama elementlarini shakli, rangi yoki boshqa belgilariga ko'ra qarama-qarshi qo'yish uchun ishlataladi. Bu reklama elementlarining xarakterli xususiyatlarini ko'rsatib berish imkonini yaratadi va uni yaxlit idrok etishga ko'maklashadi.

---

<sup>1</sup> Кенг маънода гармония (уйғунлик) қандайдир предметнинг барча таркибий қисмлари органий ўзаро алоқадорлиги, ранг-баранглиликнинг бирлиги сифатида тушунилади.

**Nyuans** - kontrastga zid vosita. elementlarning shakl, o'lcham, rang va sh.k. larga ko'ra salgina farqlanishini shunday ataladi. Nyuans kompozitsiyani ko'plab emotsiyal ottenkalar bilan boyitadi.

**Simmetriya va asimmetriya** eng yorqin kompozitsiya vositalaridan sanaladi. Asosiy mazmuniy element reklama e'loni markazida joylashtirilgan bo'lsa, simmetrik; u markaziy o'qqa nisbatan chetga surilib joylashtirilsa, asimmetrik kompozitsiya tuziladi. Simmetrik kompozitsiya reklamaning statikligi, asimmetrik kompozitsiya esa dinamikligini ta'kidlaydi, deb hisoblanadi.

Bosma reklamaning kompozitsion qurilishi shunday amalga oshirilishi kerakki, uning ichki mantiqi ochib berilsin.

**Reklamani joylashtirish (komponovkalash).** Sifatli tayyorlangan va joylashtirilgan reklama o'quvchi e'tiborini darrov o'ziga tortadi va matnga berilib ketishga majbur etadi. Bu e'tiborning tutib qolinishi endi matnga bog'liq bo'lib qoladi.

Xatto sodda reklamani ham komponovkalash ancha mushkul ish. Komponovka deganda reklama e'loni kompozitsiyasining eng yaxshi variantini izlash, uning barcha shakl hosil qiluvchi qismlarini yagona yaxlitlikka birlashtirish bilan bog'liq ijodiy jarayon tushuniladi.

Komponovka – reklama ustidagi ishning eng mas'uliyatlari bosqichlaridan biri. Reklama e'loni elementlarini qog'oz yoki kompyuter ekrani sathida joylashtirishda dizayner u mansub bo'lgan sohani, o'rnashib qolgan bezash uslublarini, ma'lum axboriy va psixologik talablarni olishi zarur bo'ladi.

Bosma reklamani maketalash va komponovkalash tom ma'noda san'atdir. Uni qanday tavsiflash muhim emas: amaliy, sanoat, utilitar bo'lsin, mohiyat saqlanib qolaveradi – bu san'at. Shu sababli mavjud qoida va tavsiyalarni qat'iy qonunlar sifatida qarash, ularni so'zsiz bajarish shart emas. Buni, ko'proq o'zining bezash metodikasi asosi sifatida olish, fantaziya i va original echimlar bilan boyitish kerak.

Bosma nashrlarda chop etishga mo'ljallangan reklama e'lonlarini reklama-modul deb atashadi<sup>2</sup>.

Bu kabi modul yuzasi turli tasviriy xossalari bilan tavsiflanadi: format, proporsionallik, statika, dinamika, rang, faktura va b. Elementlarni yagona yaxlitlik – kompozitsiyaga bog'langan holda yuzada joylashtirish turlicha bo'lishi mumkin. Biroq reklama modulni komponovkalashning cheksiz variantlarii ikki: simmetrik va asimmetrik turga bo'lish mumkin.

---

<sup>2</sup> модуль – босма йўлканинг бошланғич элементи ( лат. modulus - ўлчов ).

U yoki bu turni tanlash ko‘plab omillarga bog‘liq. Ular orasida asosiyлари reklama xabarining mazmuni va uni idrok etishning psixologik o‘ziga xosliklari bo‘lib, bu ikki omil o‘zaro uzbek birlikda namoyon bo‘ladi.

Simmetrik komponovka tobora sodda sanalib, ba’zida elementar geometrik qurilishga tenglanadi. Simmetriya modul yuzasida o‘qlar, elementlar-bloklar o‘rtasidagi teng intervallar, ularning metrik takrori mavjud bo‘lishini talab etadi.

Asimmetrik komponovka elementlarni shunday tashkil etishki, u qandaydir qat’iy normativlar bilan belgilanmagan. Asimmetriya uchun ichki energiya, harakt xos. U ommaviy axborotning asosiy tamoyillari: dinamiklik, faollik, rotib borishni realizatsiyalash imkonini beradi. Reklamaning tezkorligi tamoyili ham asimmetrik komponovkaning tobora jalb etadigan usuli sifatida ta’riflanadi.

Asimmetrik komponovka simmetrikka qaraganda murakkabroq va qiziqarliroqdir. Reklama modullarini shu kabi komponovkalashning ayrim usullariga to‘xtalamiz.

Istalgan kompozitsiya sxematik, ya’ni struktur elementlari sonidan qat’i nazar ularni yagona butunlikka bog‘laydigan ko‘rish o‘qlariga ega. Shunday qilib, kompozitsiyaning asosiy vositalarini formal (shaklan) sxemalar ko‘rinishida aks ettirish mumkin. Ta’kidlash joizki, bu kabi kompozitsion sxemalar faqat umumiyl tushunchalarni aks ettirish uchun xizmat qiladi, mavhum xarakterga ega va bir marta hamma zamonlar uchun berilgan, tugal retseptlar emas. Shuningdek, ular kompozitsiyaning emotSION-obrazli qurilishini izohlashda yordamchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Bezakchi rassomlar anchadan beri kompozitsion sxemalardan o‘z asarlarining o‘ziga xos «vizual dramaturgiyasini» aks etitirishda foydalanib keladi, zero ularning mazmunini pirovardida u yoki bu psixologik va emotSIONAL effekt belgilaydi.

Reklama modullarini komponovkalashning asosiy usullarini illyustratsiyalash uchun ayrim sxemalardan foydalanamiz.

**Reklamaning bitta elementini komponovkalash.** Agar reklamada birgina element bo‘lsa, u, odatda, reklama modulning geometrik markazidan o‘ngroqda yoki chaproqda, balandroqda yoki pastroqda joylashtirilishi kerak.

Uning markazdan uzoqlashganlik darjasini asimmetrik kompozitsiya dinamikligining umumiyl darajasini belgilaydi. Elementning markaziy gorizontal o‘qda (markazdan o‘ng yoki chapga surilganidan qat’i nazar) joylashganligi bu elementning go‘yoki ko‘rishda «qulashini» belgilaydi. Uning nisbiy muvozanatiga asosiy dog‘ni hamma vaqt geometrik o‘qdan yuqoriq bo‘ladigan optik o‘qda joylashtirish hisobiga erishiladi.

**Ikkita element-bloki komponovkalash.** Komponovkaning bu turi uchun avval elementlarning qay biri ustivorlik qilishini va boshqasini o‘ziga

bo‘ysundirishini aniqlashtirib olish lozim. Bu elementning ustivor roli rang, tus, dekorativ dog‘lar hisobiga ko‘rish kattaligi bilan aksentlanishi mumkin.

**Ikkita teng bo‘lmagan elementni komponovkalash** ularning asosiysini reklama modul yuzasida mantiqiy asosli joylashtirishni talab etadi. Elementlarning joylashish o‘rnini tanlash material mazmuniga bog‘liq va modul komponovkasi qanchalik statik yoki dinamik bo‘lishini belgilaydi. Bir qarashda elementlar ton va o‘lchamiga ko‘ra farq qiladigan, qog‘oz sathida ma’lum tartibda komponovkalangan dog‘lardek taassurot uyg‘otadi. O‘lchamiga ko‘ra farq qiladigan ikkita dog‘ ko‘pincha bir-biriga yotqazish yoki taqqoslash yo‘li bilan komponovkalanadi. Elementlarni go‘yo bir-biriga tortiladi, asosiysi tus, rang, kontrast, voldingi planga olib chiqish va sh.k. bilan ajratiladi. Dog‘ o‘lchamlari kichik bo‘lsa, uni alohida ajratish zarur. Dog‘larni taqqoslash mazmuniga ko‘ra kontrastli va nyuansli bo‘lishi mumkin. Nyuansli taqqoslash dog‘larni ko‘rish jihatidan yaqinlashtirish, kontrastlisi – uzoqlashtirishni talab qiladi. Har ikkala holatda muvozanatga elementlarning rang va tus xarakteristikalarini proporsional taqsimlash, shuningdek fonning tashkil qiluvchi roli hisobiga erishiladi. Kichikroq dog‘, odatda, yorqin rang yo to‘yintirilgan tus hisobiga «kuchliroq». Dog‘larni joylashtirishda ularni o‘rab turgan fon uchastkalari xususiyatlarini ham hisobga olish kerak.

**Reklamaning uchta elementini komponovkalash** amalda cheklanmagan miqdordagi variantlarni taqdim qiladi. Bunda, xuddi avvalgi holatdagi kabi elementlar «tortiladi», asosiysi rang, tus va oldingi planga chiqarish bilan ajratiladi. Ikkinci darajalilari esa bloklarga shakllantiriladi. Biroq mumkin bo‘lgan barcha variantlarni tahlil qilishga kirishish ijod bilan mos kelmaydigan «retseptlar» yo‘liga kirib qolishni anglatgan bo‘lardi. Bu o‘rinda asosiysi – elementlarning bir-biriga nisbatan mazmuniy ahamiyatini to‘g‘ri aniqlash va ularni shu ahamiyatiga ko‘ra turli ifoda vositalari bilan aksentlash.

**To‘rtta va ortiq element-blojni komponovkalash** – bu reklama moduli kompozitsiyasining tobora murakkab turi. Yuqoridagi kabi bu o‘rinda ham tayyor retseptlar bo‘lishi mumkin emas. Amaliyotda alohida elementlarni nisbatan yirik dog‘larga birlashtirish (guruhash) va keyin materialning ahamiyatliliga ko‘ra ajratish yaxshi natijalar beradi.

Har bir komponovkaning vazifasi – reklama xabarida asosiysini ko‘rish uchun ajratish. Bunga kontrast va nyuans taqqoslash bilan erishish mumkin. Odatda, asosiy reklama xabarini “tashiydigan” belgi yoki ili element uning o‘zini va u joylashgan maydonni (hoshiyani) kontrast birlashtirish hisobiga ajratiladi.

Ko‘rish aksentlarini joylashtirishda idrokning fiziologik qonuniyatlarini nazarda tutish muhim. Masalan, axborotni ko‘rib chiqishda ko‘zimiz chapdan

o'ngga harakatlanishi odatiydir. Mazmuniga ko'ra asosiy elementlarni bu harakatga ko'ndalang joylashtirilsa, ular beixtiyor ko'zga tashlanadi, aksentlanadi.

Proporsiyalar va gorizontalga nisbatan holatiga ko'ra reklama modulni uzunasiga (kitobiy yoki portret - ingl. portrait) va ko'ndalang (albom yoki landshaft - ingl. landscape) komponovkalash farqlanadi. Modulning vertikal orientatsiyasi (yo'nalganligi) o'ziga xos yuqoriga intilish hissini, gorizontali esa xotirjamlik va doimiylik hissini keltirib chiqaradi, deb hisoblanadi.

Boshlovchi dizaynerlarning tipik xatolaridan biri shundan iboratki, ular modul maydonida imkon qadar ko'p reklama materialini joylashtirishga intiladi.

Rasm reklamaning noto'g'ri kompozitsion qurilishiga misol bo'ladi: dizayner modulning butun maydonidan oxirgi millimetrgacha maydonlarni imkon qadar kichraytirish bilan foydalangan.

Bir muncha siyraklashtirilgan, tavsiriylari matn materiali zichligi va quyuqligi bilan bostirib yubormaydigan komponovka, ancha yaxshi taassurot qoldiradi.

Dizayner-grafikning hamma ijodiy topilmalari bosma reklama original-maketining eskiz variantida mujassamlashadi. Buning uchun qog'oz sathining shunday miqyosi tanlanadiki, u bir tomondan, ishlash uchun qulay bo'lsin, ikkinchi tomondan esa, tipografiyalarda qabul qilingan miqyoslash standartlariga mos kelsin.

Eskiz ustida ishlar ekan, dizayner avval joylashtirilishi kerak bo'lgan tasviriy va matnli element-bloklarning umumiy sonini aniqlashtiradi. Keyin kompozitsion sxemaga muvofiq eskizda reklama bloklar bilan band bo'lgan va hoshiyalar uchun zahira, bo'sh o'rinalar belgilanadi. Bosma reklamada hoshiyalar kengligi ko'p omillarga, jumladan bloklar soni, matn satrlari uzunligi va miqdori, shrift shakli va uning yozilishi, harflar o'lchamiga bog'liq bo'ladi.

Keyin dizayner kompozitsion sxemaning tasvir yoki matn joylashtiriladigan o'rinaliga murojaat qiladi. Ularni imitatsiyalaydigan to'g'ri to'rtburchaklar och ton bilan bo'yaladi. Shu tariqa eskizda reklamaning umumiy kompozitsion sxemasi yuzaga keladi, u rangli bajarilishi kerak bo'lsa, mos rang gammasi tanlanadi.

Shunday keyingi bevosita shrift bilash ishslashga o'tiladi.

Reklama xabarining komponovka eskizi bilan ishlaganda butun matn bloklarga bo'linadi. Bloklar xarakteri mazmun bilan belgilanaldi. Bosma reklamaning matn qismi to'liq hajmda quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- reklama beruvchi firmanın möhiyatı, falsafası va korporativ siyosatını aks ettiğin slogan;
- reklamaning asosiy argumentini aks ettiğin sarlavha;
- asosiy reklama-matn;

➤ exo-fraza (aks sado-jumla), reklama-matnning asosiy g‘oyasini takrorlaydi va unga tugal ko‘rinish baxsh etadi.

Reklama-matnda barcha tarkibiy qismlarning bo‘lishi majburiy emas. Ularning miqdori xabar mazmuni va mundarijasi bilan belgilanadi.

Tanlangan matn element-bloklari, xuddi tasviriylari kabi, eskiz maydonida kompozitsion g‘oyaga muvofiq joylashtiriladi. Matn gorizontal, vertikal, diagonal bo‘yicha yoki ixtiyoriy yopiq chiziq bo‘ylab joylashtirilishi mumkin.

Matnni joylashtirish yo‘nalishini reklama modul orientatsiyasi bilan qorishtirish yaramaydi. Masalan, uning proporsiyalaridan qat’i nazar, asosiy matnni gorizontal bo‘ylab joylashtirish tavsiya etiladi. Reklamaning asosiy qoidalarini vertikal yozuvlarda aks ettirish mumkin. Biroq bu kompozitsion usulni suiste’mol qilish yaramaydi, zero u o‘qishni qiyinlashtiradi. Matnni diagonal joylashtirishga reklama modulning istalgan orientatsiyaida yo‘l qo‘yiladi, asosiysi o‘qishga qulay bo‘lishiga rioya etish.

Yirik formatli reklama plakat-posterlar eskizini tayyorlashda alohida ikki-uch harf qog‘oz yuzasida natural kattalikda bajarilishi mumkin, bu yozuv ma’lum masofadan qanday idrok etilishini tekshirishga imkon yaratadi.

Kompyuter maketlashtirishda bu kabi og‘ir ishlar kerak bo‘lmay, faqat matnning alohida elementlarini ekranda joylashtirish talab etiladi.

Har bir blok doirasida va butun reklama doirasida matnni komponovkalash ikkita asosiy: simmetrik i asimmetrik sxemaga ega.

Birinchi holatda matnning simmetriya o‘qidan o‘ng va chapda bir xil masofada (ko‘zgudagidek) joylashgan ikki qismi og‘irligi bir-biri bilan teng. Shu sababli bu kabi shrift kompozitsiyalar barqarorlik, muvozanatlilik, harakatsizlik hissini yuzaga keltiradi.

Ikkinci holatda muvozanatga bir-biridan farq qiladigan, simmetriya o‘qlari bilan bog‘lanmagan matn elementlari hamo‘lchamligi hisobiga erishiladi. Bosma reklama ustalarining fikricha, matnni asimmetrik komponovkalash simmetrik komponovkaga nisbatan jonliroq, yorqinroq tasavvur uyg‘otadi.

Reklama xabarini maketlashtirganda dizayner matnni komponovkalash va chekkalarini tekislashning turli usullaridan foydalanishi mumkin.

a) Matnni joylashtirishda markazlash; b) reklama modul yuzasida asimmetrik joylashtirish bilan ikki yoqlama tekislash

Matnning birgina so‘zdan iborat pastdan ikkinchi satriga e’tibor qarating. Matnni ikki yoqlama tekislash uchun shrift gorizontal bo‘yicha miqyoslangan. Bunday qilinmasa, trekingdan foydalanilmasa, xatboshi ikki yoqlama tekislaganda bir munchcha siyrak ko‘rinishi mumkin.

Bu reklama modulning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, kompozitsiyaning asosiy vositasi aks kontrast sanaladi. To‘g‘ri kontrast kabi odatiy kompozitsion vosita tanlangan boshqa modullar qatorida u beixtiyor diqqatni tortadi.

Shriftning turli xarakteristikalari tufayli reklama xabariga turlicha individual ko‘rinish beribgina qolmay, balki nutqiy muloqotning ayrim xarakterli nyuanslarini aks ettirish am mumkin.

Masalan, shrift o‘lchamini reklama “ovozlashtirilgan” ovoz kuchi qiyoslash mumkin. Baland jumlalar katta, sekingina aytilganlari kichik shrift bilan qiyoslanadi. Harflar o‘lchamini asta-sekin kattalashtirish ovoz energiyasi ortishini, kichiklashtirish-ovozning pasaytirilishini aks ettirishi mumkin.

So‘zlar, satrlar orasidagi masofani kattalashtirish yoki ko‘p nuqtadan foydalanish bilan xabarning sekin sur’ati yo sukutni (pauzini) imitatsiyalash mumkin. Nutqning emotsiyonalligi matnga so‘roq yoki undov belgilarini kiritish bilan yaxshi aks ettiriladi.

Shrift yordamida dizayner reklama xabar jo‘natuvchisining ayrim individual sifatlarini aks ettirishi mumkin.


Masalan, original qo‘lyozma shrift reklama xabarda ma’lum ma’noda ishonch muhitini yaratish imkonini beradi. Qo‘lyozma shrift bola dastxatidek taassurot qoldiradi. Reklama xabarida shrift bilan “o‘yin qoidalariga” rioya etish bilan bir qatorda rangdan foydalanilsa, bundan u faqat foyda ko‘radi.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

### **1-mavzu. Dizaynni loyihalash.**


**(2 soat)**

Biz harflar orqali o‘z fikrimizni bayon qilamiz, boshqalar fikrini o‘qib olamiz. Biz uchun harflar a’loqa vositasi, fikr almashish va bayon etish vositasidir. Yozuv shaklidagi belgilar juda qadim zamonlarda bo‘lgan. Arxeologlarning fikricha dastlabki yozuv shaklidagi belgilar bundan 15000 yil ilgari paydo bo‘lgan ekan (1-rasm).



**1-rasm. Qadimgi Xitoy piktografik yozuvi.**

Hozirgi kunda ishlatalayotgan harflar insoniyatning ko‘p asrlik ijodining samarasi bo‘lib, uning shakllanishi asosida Misr iorogliflari yotadi. (2-rasm).




**2-rasm. Misr iorogliflari.**

Dastlab kishilar o‘z fikrlarini bayon etish uchun turli tasvirlardan foydalanganlar (3-rasm).

Луншань белгилари	Инь		
	Куёш	Олов	Тор

**3-rasm.**

Keyinchalik bu ierogliflar tasvirlari soddalashib ma'lum belgilarga aylanganlar. Bu belgilar shu harf bilan boshlanadigan so'zning birinchi tovushini anglatadigan belgilardan iborat bo'lgan. (4-a va b rasmlar).



**4- a rasm. Ierogliflar.**

1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.	11.	12.	13.	14.	15.	16.	17.	18.	19.	20.	21.	22.	23.	24.	25.	26.	27.	28.	29.	30.	31.	32.	33.	34.	35.	36.	37.	38.	39.	40.	41.	42.	43.	44.	45.	46.

**4- b rasm. Jarqo'ton. Piktografik belgi-yozuvlar ko'rinishi.**

Bu belgilar ham keyinchalik yanada takomillashib borib Eramizning boshlarida ma'lum darajadagi harf shakliga kelgan. Bu harflarning tuzilishi hozirgi kunda ishlatilayotgan lotin va kiril alifbosidagi harflariga uxshab ketadi. Demak alfavitdagi harflar ichtiyoriy olingan turli belgilar yig'indisi emas, tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashgan ieroglfiflardir.

Harflar uzoq yo'lni bosib o'tgan. Shu davrlar o'tishi bilan ularning ko'rinishlari ham o'zgarib borgan, elementlar stilizatsiyalashtirilgan, lekin harf tuzilishi o'z holicha qolgan. Masalan, Istalgan gazeta, jurnal, turli kitoblarda ishlatilgan harflar o'zining tashqi ko'rinishi bilan farq qilsada, lekin ularning asosida uxshashlik borligini sezish mumkin.

Har bir davr, harflarga o‘z talablarini qo‘yanidek, bizning davr ham harflarga o‘z talablarini qo‘ymoqda. Bu talablar yoziladigan harflarning sodda ixcham oson o‘qiladigan va go‘zal bo‘lishiga qaratilganligini aytish mumkin.

Harflarning tarixini o‘rganadigan fan **paliografiya** (yunoncha **palios**-qadimgi va **grapho**-yozaman) deyilib, qadimdan to, shu kunlargacha bo‘lgan yozuvlar tarixini insoniyatga ma’lum qilib kelmoqda.

Yozuvlar har bir xalqning tarixi va madaniyati hisoblanadi. Bu tarix orqali butun dunyo madaniyati o‘rganiladi.

Paliograflarning takidlashicha harflar to‘rtta asosiy boskichni boshidan kechirgan:

**I. Piktografik yozuvlar** – eng qadimgi zamonda harf o‘rniga rasm chizish orqali yozish usuli hisoblanib, odamlar o‘z his tuyg‘ularini rasmlar yordamida ifoda qilishgan. Rasmlar orqali axborotlar berishgan. Ushbu rasmlar asta-sekin ma’lum so‘zlarni ifodalaydigan **idiografik** xatga o‘ta boshlagan.

**II. Ideografik yozuvlar** – bunday yozuvlar savdo-sotiqlar rivojlanib, Davlatlar tuzila boshlangan paytga to‘g‘ri keladi. Qadimgi Xitoy va qadimgi Misrda grafik shaklga ega bo‘lgan belgilar orqali yozuvlar paydo bo‘lgan. Har bir belgi bitta so‘zni anglatgan. Bu yozuv Xitoyda keng rivojlanib, **ieroglyph** (yunoncha **xieroglipxom**-muqaddas uyma) deb atalgan.

**III. Bug‘inli xat** – so‘zdagi bug‘inni ifoda qiluvchi belgilar. Xindistonda devonagar yozushi, Xitoy ideogrammasiga asoslangan Yaponiya yozushi vujudga keldi. Bunday belgilar asosida tovushni ifoda qiladigan harflar paydo bo‘la boshlaydi.


**IV. Tovushni ifodalovchi harflar** – ieroglyph sekin-asta belgi ya’ni harfga o‘ta boshladi. Natijada, odam tovushini ifoda qiluvchi harflardan alifbo tuzila boshlangan. Alifbodagi harflarning soni har bir xalqning tiliga bog‘liq bo‘lgan.

Birinchi alifbo miloddan avvalgi XI-asrda Finikiyaliklar tomonidan yaratilgan va u orqali butun dunyodagi alifbolar rivojlanishiga asos solingan. Demak yuqoridagi fikrimizni yana takrorlasakda alfavitdagi harflar ixtiyoriy olingan turli belgilar yig‘indisi emas, balki tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashgan ierogliflardir.

Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Arab, miloddan avvalgi III-asrda esa Lotin va keyinroq boshqa alifbolar vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoda qadimgi Xorazm yozushi miloddan avvalgi III-asrdan, Urxun-Enisey yozushi milodning V-VIII asrlarida, Arab yozushi esa VII-asrdan, 1929-yildan Lotin alifbosi, 1940-yildan «Kirilitsa» (rus) alifbosi, 1996-yildan boshlab esa Respublikamizda Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuviga o‘tilgan.


O‘zbekistonning Jizzax viloyatida miloddan avvalgi V-III asrlarda Poliolit davriga mansub toshga o‘yib bitilgan yozuv va rasmlar topilgan (5-rasm).



### **5-rasm. Poliolit davriga mansub toshga o‘yib bitilgan yozuv va rasmlar.**


Miloddan uch ming yil ilgari tashkil topgan ierogliflar xozirgi zamon harflarining boshlanishi hisoblanadi.

Milodan avvalgi VI asrda Qadimgi Vavilonda Shumerlar tomonidan **ponasimon** harflar yaratilgan bo‘lib, loydan yasalgan taxtachalarga o‘yib yozilgan (6-rasm).



### **6- rasm. Qadimgi Vavilonning ponasimon harflari.**


Pona uchlarining yo‘nalishi va ularning qo‘shib joylashtirilishi orqali tovushlar hosil qilingan. Milodan avvalgi uch minginchi yillardayoq Xitoyliklar o‘ziga xos ierogliflardan foydalanishgan. (7-rasm).



7-rasm.


Ular Xitoydan butun Janubiy Osiyo mamlakatlarga tarqalgan. Masalan, Yaponiyaliklar ham yozishni Xitoyliklardan o‘rgangan bo‘lib, ideografik-fonetik xatni 1850 ga yaqin belgilardan yaratishgan. O‘zgalardan olgan so‘zlarni katta **kanna** usulida, o‘zlarining so‘zlarini esa **xiragana** usulida bitishgan.

Shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari Urxun-Enasoy yozuvidan foydalanishgan. (8-rasm).



8- rasm.

Asta-sekin harflar simvolik (ramziy) tarzda belgilanishidan tovushni ifoda qiluvchi belgilar ko‘rinishiga ega bo‘la boshladi. Shunday qilib ieriogiflar, davr o‘tishi bilan tovushni ifoda qiladigan belgilarga o‘ta boshladi. (9-rasm).




9-rasm.

Rimda miloddan avvalgi II-I-asrlarda Lotin alifbosi yaratildi va bu alifbo shu kunlargacha diyarli o‘zgarishsiz etib keldi va «Rim kapital harfi» deb nomlanib, turli ko‘rinishda rivojlanib, butun dunyoga tarqalgan. Miloddan avvalgi VI-asrda Aramey yozuvi asosida yaratilgan Arab yozuvi shu kunlargacha diyarli o‘zgarmagan. (10-rasm).



10-rasm.

Miloddan avvalgi III-asrda Xorazmda idishga yozilgan xat namunasi hamda Xorazm arhividagi hujjatdan olingan yozuvar namunasidan ko‘rinib turganidek, qadimgi Markaziy Osiyoda ham yozuvar bo‘lganligini aytish mumkin. Qadimgi Xorazm shaklarining tangalarida ham yozuvar zarb etilgan va I-asrda zarb etilgan noma'lum shox tangasidagi yozuvlardan, hamda III-asrda zarb etilgan Vazamar shox tangasidagi yozuvdan namunalar keltirilgan. (11-rasm).



11-rasm.

V-asr boshlarida Mesrop va Mashtotslar tomonidan Yunon alifbosiga asoslangan Arman yozuvi yaratilgan. V-asrda Arameylar yozuvi asosida Guruzinlar o‘z yozuvini tashkil etishgan.

Shular qatorida raqamlar ham qachon qanday paydo bo‘lgan degan savol tug‘iladi? Raqamlar esa birinchi marta Misr va Vavilonda hisob kitoblar qilishda tadbiq qilingan va ular qadimgi Yunonliklarda, Finikiyaliklarda, Isroyilliklarda, Suriyaliklarda alifbo harf sifatida ishlatilgan. Shunday hol Rossiyada ham XVI-asrlarda davom etgan. X-asrda Ispaniyaga Arablar tomonidan olib kirilgan Xindiston raqamlari XI-asrning ikkinchi yarmida Evropaga keng tarqalib, ular Arab raqami deb yuritila boshlandi. Ungacha Evropda Rim raqamlardan foydalanishgan. IX-asrda Yunon va Lotin alifbolari asosida Kiril va Mifodiya «Kirilitsa» deb nom olgan Slaviyan alifbosini yaratdilar. Asta-sekin “kirillitsa” o‘sha davrgacha Glogalitsa deb nomlangan yozuvni so‘rib chiqardi. (12-rasm).




12-rasm.

Lotin alifbosi asosidagi harflar turli davrlarda turlicha nomlanib kelgan. Urta asrlarda Gotika, uyg‘onish davrida antikva shaklida rivojlangan. Kundalik yozuv ishlarida qo‘lay bo‘lishi uchun hattotlar katta (bosma) harflar-mayuskullar o‘rnida asta-sekin kichik (yozma) harflar-minuskullardan foydalanila boshlangan va ular keyinchalik «kursiv» deb atala boshlandi.

Shunday qilib hashamatli katta harflar o‘rnida ihcham, sodda va qulay bo‘lgan yozma harflar tadbiq qilina boshlandi.


Yozish jarayonida hattot va rassomlarning yozish qobiliyatiga binoan harflarning asosiy shakli saqlangan holda grafik tuzilishi o‘zgarib turadi. Yozish asboblarining ham takomillashishi natijasida kapital harflarning kvadrat, rustika ko‘rinishlari vujudga keldi. Milodning boshlarida Arxitekturaga yumaloq shakldagi arkalar kirib kelishi munosabati bilan harflarda ham o‘zgarishlar ro‘y berdi.

IV-asrga kelib unsial keyinroq yarim unsial yozuvlar paydo bo‘ldi. XI-asrga kelib kapital va unsial yozuvlardan Lombard Versali tarqaldi. Bu dekarativ harf hozirgi davrlarda ham keng qo‘llanilmokda. (13-rasm).




13-rasm.

1509-yili Leonardo da Vinchining shogirdi Luko Pacholi ustozining qo‘lyozmasi asosida harflar yaratdi. (14-rasm).



14-rasm.

L.Pacholi barcha harflarning bittadan turini kvadratga nisbatan chizib chiqdi. Olmoniyalik Albrext Dyurer esa har bir harfning turli ko‘rinishlarini yaratdi. (15-rasm).



15-rasm.

Harf tuzilishlarida asosiy o‘zgarishlar XVIII-asr ohiri, XX-asr boshlarida ro‘y berdi. Barcha harflar uni yaratgan hattot yoki rassom, nashriyot, shaxar yoki joy nomlari bilan atala boshlandi.

Har bir yaratilgan harf o‘zining ko‘rinishi (stili) jihatdan bir butun bo‘lib, boshqa harflardan tuzilishi, unsurlarining joylashishi bilan ajralib turadi.

## **2-mavzu. Dizayn sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari (4 soat)**

“Proyektiv fikrlash” tushunchasi mashhur zamonaviy faylasuf Mixail Epshteyn tomonidan yaratilgan. Mixail Naumovichning o‘zi bu tushunchani “Dialoglar” dasturida (1) ochadi: “Proyektiv fikrlash sub'ektiv va ob'ektiv emas, balki mavzuni oldingi emas, balki nazariyadan kelib chiqadigan deb belgilaydi. Nazariy qarashning o‘zi bu mavzuni yaratadi. Va, aslida, oxirgi 3-4 asrdagi insonparvarlik tafakkuri, aslida, proyektiv fikrlashdir. Biz shunchaki unga e'tibor bermaslikka harakat qilamiz. Aytaylik, adabiyot nazariyasi sohasidagi eng ajoyib asarlar manifestlardir. Bu esa proyektiv fikrlashning namunasidir”. U shunday deydi: "... bu kelajakning mikrob nuqtalari bilan ishlash, kelajak oldidan, hozirgi paytdan boshlab ochilayotgan vaqt doirasi bilan ishlash”. Yana bir narsa: “fikrlash, bilimdan farqli o’laroq, mavjud dunyoni aks ettirmaydi, balki kelajak dunyosini yaratadigan g’oyalar, tushunchalar, tushunchalarni yaratadi. Tabiatdan tashqari atrofimizda ko‘rayotgan hamma narsa inson tafakkurining proyeksiyasidir va shu ma’noda insonning barcha chuqr tafakkuri proyektiv fikrlashdir

Biroq, proyektiv fikrlash, axir, tafakkurning alohida turidir. Mixail Epshteyn bu fikrni shunchaki chuqr deb ataydi. Ammo, mening fikrimcha, ko‘p dunyo paradigmasi kontekstida uni to’liqroq aniqlash mumkin. Bu fikrlash odatiy real javob doirasidan tashqariga chiqadigan voqelikni ongli ravishda tanlash bilan bog’liq. Haqiqatni tanlash - bu everetikning kontseptual apparati bilan bog’liq bo’lgan atama, ya’ni. Kvant mexanikasining ko‘p dunyo kontseptsiyasi asosida rivojlanayotgan fikrlash sohasi. Mening tushunishimga ko’ra, everetika haqiqatni bilish va tushunishing samarali vositasidir va ko‘p dunyo paradigmasi proaktiv fikrlashning kuchli oqimini yaratadi. Ammo, men tushunganimdek, everetikning asosiy qoidalari bilan boshidan boshlayman.

Xalqaro Everetik tadqiqotlar markazida (ICER) men tomonidan ishlab chiqilgan ko‘plab olamlarni talqin qilish kontekstida (2), moddiy dunyo g’oyalar olamining rasmiy ifodasidir, deb taxmin qilinadi, ya’ni. borliqning ma’naviy va axborot jihatni mazmun va shakl sifatida moddiy voqelik bilan o‘zaro bog’liqdir. Bu shuni anglatadiki, har qanday jismoniy olam ob'ektining mohiyati uning g’oyaviy

mazmuni, o'ziga xos faol eydosi bilan belgilanadi. Dunyoda mavjud bo'lgan faoliyat borliqning ruhiy qutbining ko'rinishi sifatida qaraladi. Albatta, "ruhiy" atamasi yuqori, ijodiy faoliyatni anglatadi. Agar biz jismoniy o'zaro ta'sirlarni ko'rib chiqsak, unda psixo-o'xshash, "psixoid" faoliyat haqida gapishtirish yaxshiroqdir. Psixoid va borliqning jismoniy qutblarining o'zaro ta'siri natijasida voqelik ontologiyalanadi. (3) Shunday qilib, men o'zaro ta'sir qiluvchi barcha ob'ektlarni mujassamlangan sub'ektlar, raqamlar deb hisoblayman. Aktyorlarning animatsiyasi yoki ratsionalligi haqida gapishtirishning ma'nosi yo'q. Ularning psixikasi bu mulohazada mavjudlikning o'ziga xos usulini tanlash xususiyatiga qisqartiriladi, ya'ni. joriy eidos. Ya'ni, aqliy faoliyat haqiqatni tanlash qobiliyati sifatida belgilanadi.

Koinot ushbu modelda Multiverse sifatida ko'rib chiqiladi, ya'ni. barcha sub'ektlar yoki aktyorlarning barcha mumkin bo'lgan munosabatlarini jamlagan holda klassik bo'lмаган turdagи voqelik. Faol eydos (yoki ko'p dunyo aktyori) global o'zaro ta'sirlar tizimiga kiritilgan bo'lib, uning doirasida u boshqa aktyorlar bilan muvofiqlashtirilgan holda o'z mavjudligining adekvat shaklini tanlaydi (namunali tasvirda u yagona voqelikni tanlaydi). uning barcha mumkin bo'lgan holatlarining kvant superpozitsiyasi). Shunday qilib, ob'ektiv voqelikning mazmuni barcha mumkin bo'lgan g'oyalari (eydos) to'plami sifatida va ob'ektiv reallik shakli barcha ob'ektlarning barcha mumkin bo'lgan holatlarining kvant superpozitsiyasi sifatida ifodalanishi mumkin. Haqiqatni tanlash ko'p olam figuralarining aqliy ko'rinishi bo'lib, uning mohiyati haqiqiy eidosni tanlashdir.

Shunday qilib, bajaruvchi Multiversening faol sub'ektidir. Biroq, u tanlagan voqelik faqat boshqa figuralar bilan o'zaro munosabati natijasida ob'ektiv xususiyatlarga ega bo'ladi. Har qanday voqelik ikki yoki undan ortiq tanlovning "yopishtirilishi" dir. Shu bilan birga, aktyorlar tomonidan birgalikda tanlangan har qanday haqiqat nisbatan ob'ektivdir, ya'ni. bu yuqori ierarxik darajadagi shaxslar uchun ob'ektiv voqelik bo'lib, ular o'zlarining keng ko'lamlı realliklarini shu asosda tanlaydilar. Gap shundaki, aktyorlar tomonidan shakllantirilgan har qanday qo'shma voqelik ierarxikdir. Demak, har qanday voqelik o'z miqyosiga ko'ra kattaroq masshtabni tanlash orqali shakllangan voqelik tizimiga kirishi mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, barcha o'ziga xos voqeliklar Ko'p olamning o'zgarmas va statik superpozitsiyasidan kelib chiqadi.

Inson, fikrlovchi sub'ekt sifatida, Ko'p olamning juda rivojlangan figurasiadir. Insonning ruhi, ya'ni. uning psixikasi, umumiylar ma'noda, everetik pozitsiyasidan multividuum sifatida taqdim etiladi. Shu sababli, fikrlaydigan sub'ekt uchun voqelikni tanlash - bu o'ziga xos voqelikdagi yagona ko'p turning timsoli sifatida

tushuniladigan o'z shaxsiyatini amalga oshirish yo'lini tanlash. Va buning natijasida yuzaga keladigan voqelik faqat multividuumda mavjud bo'lgan shaxsning ma'lum bir versiyasini tanlashning natijasidir. Men sizning e'tiboringizni ushbu variantlar superpozitsiya kvantlashning turli shkalalariga ega bo'lishi mumkinligiga qaratmoqchiman, bu esa sifat jihatidan turli xil ruhiy haqiqatlarni tanlashga olib keladi. Shunday qilib, biz o'z ongli shaxsimizni ruhning ko'p turlaridan tanlaymiz va bu haqiqiy ongli shaxs bizning kelajagimizni loyihalashtiradi.

Darhaqiqat, voqelikni tanlash real munosabat jarayonida ham sodir bo'ladi, lekin u ongli ravishda ijodiy emas, balki fikrlash jarayonida ilgari shakllangan qiymat modellari va munosabatlarining chiziqli, kichik miqyosdagi davomidir. Ongli va biologik motivatsiya haqiqiy javobda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ongga nisbatan operatsion reaktsiyalar ko'pincha tasodifiy yoki avtomatik ko'rindi, ya'ni. etarli darajada motivatsiyalanmagan. Proyektiv fikrlash voqelikni ongli ravishda tanlashdir, buni ta'kidlash kerak.

Shunday qilib, fikrlash va mulohaza yuritish, biz an'anaviy konservativ reaktsiyadan voqelikni o'zgartirishga, muqobil voqelik tomon maqsadli va izchil harakatga o'tmoqdamiz. Tanlangan yo'nalishdagi bu harakat shaxsiy o'zgarish, individual ma'naviy voqelikni qayta qurish bilan bog'liq, deyish kerakmi? Men bobni shu erda boshladim. Ya'ni, keljakni loyihalash insonning ruhini o'zgartirishga urinishdir. Bunday rejorashtirish ko'p tur sifatida tushuniladigan shaxsning haqiqiy markazining siljishiga olib keladi. Aynan shu jarayonni men rivojlanish yo'nalishini ongli ravishda tanlash deb atayman va uni ijodiy inson tafakkurining o'ziga xos xususiyati deb bilaman.

Voqelikni ongli ravishda tanlashning o'ziga xos xususiyati nimada? Aytishim kerakki, "proyektiv tanlov" yoki "proyektiv fikrlash" - bu haqiqatni ongli ravishda tanlash bilan sodir bo'layotgan voqealarning mohiyatini ochib beradigan juda yaxshi atama. Ya'ni, biz keljakni loyihalash, ma'lum bir rejorashtirilgan keljak sari harakat kontekstiga qo'shadigan bunday haqiqiy haqiqatni tanlash haqida gapiramiz. Bundan tashqari, proyektiv fikrlash ushbu konteksti o'zi quradi va belgilaydi xarakter xususiyatlari unga tegishli bo'lgan haqiqatlar uchun. Va bu ko'plab mumkin bo'lgan rivojlanish yo'nalishlarini qamrab oluvchi mavhumlik darajasida mumkin, ya'ni. shaxsiyatni anglash. Shunday qilib, ijodiy shaxs umumlashtiruvchi, "ko'p vidual" fikrlash darajasiga etadi. - Bu fikrlashda qisman multividuumni shaxsiy amalga oshirishning ma'naviy resurslari ishtiroy etadi.

Shubhasiz, proyektiv fikrlash tufayli voqelikni tanlash oddiy "sog'lom aql" tomonidan shakllantirilgan mantiqiy bog'lanishlardan tashqariga chiqadi. Sog'lom

fikr irsiy va ijtimoiy tajribani umumlashtirish bo'lib, shuningdek, avvalgi individual tajribaga asoslanadi. Proyektiv fikrlash - bu kundalik hayot doirasidan tashqarida o'ziga xos "yutuq". Shu bilan birga, hozirgi voqealar ma'lum bir umumiy kontekstda talqin qilinadi. Ya'ni, bu shaxsning ongli munosabatini amalgalashiradigan keng ko'lamli tanlovdirdi.

Proyektiv fikrlashning xarakterli xususiyati shundaki, u chiziqli mantiqqa asoslanmagan. Bu yuqorida muhokama qilinganidek, u muqarrar ravishda voqelikni kvantlashning keng miqyosdagi kundalik hayotga tatbiq etilishini anglatishi natijasidir. Xususan, bu dizayn kontekstida qabul qilingan qarolarning kundalik hayotga nisbatan ko'pincha paradoksal, chiziqli bo'limganligida namoyon bo'ladi. Bunday kattaroq, umumlashtiruvchi fikrlash ko'lami mos keladi yuqori daraja oddiy mavjudlik chegarasidan tashqariga chiqadigan va haqiqiy shaxsiyat chegarasidan tashqariga chiqadigan haqiqatni tanlashda mavhumlik.

### 3. Proyektiv fikrlashning mantiqiy xususiyatlari.

Yuqoridagi tushunchaga asoslanib, men proyektiv fikrlashning ba'zi xarakterli mantiqiy xususiyatlarini aniqladim:

1) Proyektiv fikrlash chiziqli mantiqqa asoslanmagan. Yuqorida aytib o'tganimdek, bu yaratilgan ma'naviy haqiqatda turli xil mavhumlik ko'lamlarining sintezining natijasidir, ya'ni. asl voqelikni ko'p miqyosli kvantlash.

2) Proyektiv mantiq kundalik hayot uchun odatiy printsipdan tashqariga chiqadi, istisno qilingan o'rta. Darhaqiqat, mavhumlikning kengroq miqyosi kundalik mantiqda qarama-qarshi bo'lgan bayonotlarni birlashtirishi mumkin. Bu proyektiv tafakkurga xos bo'lgan mavhumlashtirishda ma'naviy voqelikning qo'shimcha o'lchovlari ochilib, ular kontekstida oddiy darajada bir-biriga zid bo'lgan tushunchalarni birlashtirishi mumkinligining natijasidir.

3) Yuqoridagilardan kelib chiqib, proyektiv mantiq sintezini deyishimiz mumkin. Kattaroq kontekst nuqtai nazaridan qarama-qarshi tuzilmalar ularning o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan ba'zi mezonlar bo'yicha birlashtirilishi mumkin. Bu bir-birini to'ldiruvchi mezonlar voqelikni hisobga olishda yangi ma'naviy o'lchovlarning paydo bo'lishini ifodalaydi. Bundan tashqari, heterojen g'oyalarning mumkin bo'lgan sintezi darjasasi, qoida tariqasida, cheklanmagan. Proyektiv fikrlashda mavhumlik darjasasi qanchalik yuqori bo'lsa, prognoz qilinayotgan ruhiy haqiqatda shunchalik heterojen omillarni birlashtirish mumkin.

4) Shu bilan birga, proyektiv fikrlash oqimni tahlil qilish asosida quriladi holati va uni davom ettirish imkoniyatlari. Shu ma'noda, proyektiv fikrlash analitik jihatdan o'zini o'zi cheklaydi, chunki uning vazifasi rejorashtirilgan voqelikning chegaralarini belgilab beruvchi shaxs tomonidan erkin tanlangan maqsadlardir.

Shaxsning maqsadi va ustuvorligiga qarab, yaratilgan ma'naviy voqelikning ko'lami har xil bo'lishi mumkin. Menimcha, bu ishda o'zini-o'zi tasdiqlash, shonshuhrat va boylikka intilish qanchalik kam bo'lsa, proyektiv fikrlash ko'lami shunchalik keng bo'ladi. Shuning uchun men Mixail Epshteynning "...so'nggi 3-4 asrdagi insonparvarlik tafakkuri, aslida, proyektiv tafakkurdir" degan fikriga qarshi chiqmoqchiman. Ushbu davrda insonparvarlik va haqiqatan ham har qanday fikrlash uchun o'zini o'zi tasdiqlash va o'zini namoyon qilish istagi kuchayishi xarakterlidir. Ya'ni, individuallik tarbiyasi bor. Va, mening fikrimcha, masalan, o'z ijodi bilan Xudoni ulug'lashga bo'lgan fidokorona intilish bizga proyektiv fikrlashning yanada ta'sirchan ko'lamini ko'rsatadi. Sano bastakori Dovud yoki Jon Xrizostom ibodat kitobi tomonidan yaratilgan ruhiy loyihalar ming yillar davomida amalga oshirilgan. Bizning mutafakkirlarimiz uchun havas qiladigan tarozi!

5) Proyektiv fikrlash yopiq tizimlar tavsifining to'liq emasligi haqidagi Godel teoremasini yengish kabi ko'rindi. Proyektiv yondashuv yopiq va o'z-o'zidan yetarli bo'lib ko'ringan tasvir va tushunchalar tizimini "ochadi" va tasvir va tushunchalarning umumiy darajalariga o'tadi. Bizga qarama-qarshi bo'lib ko'rindigan oddiy darajadagi tarkibiy qismlar yangi g'oyalari kontekstida birlashtiriladi va Mixail Epshtein gapiradigan keljakning "nihollari" ga aylanadi. Odatiy chiziqli mantiq psevdo-yopiq tizimlarning ichki tavsifi uchun javob beradi. Kattaroq mavhumlik miqyosiga o'tish muqarrar ravishda chiziqli determinizm bilan ziddiyatga olib keladi. Bu shuni anglatadiki, real voqealar ma'lum bir umumiy kontekstda talqin qilinadi. Kattaroq fikrlash miqyosiga tegishli omillar sabab-oqibat munosabatlariga kiritilgan bo'lib, aniq sabablarga nisbatan chiziqli bo'lмаган natijalarga olib keladi.

#### 4. Proyektiv fikrlash imkoniyatlari haqida.

Qizig'i shundaki, mening ushbu maqolamga ilhom bergen suhbatda (1), Mixail Epshteynga keyingi savol "imkoniyat" fikrlash va turli xil nutqlar haqida edi. Taqdimotchi juda muvaffaqiyatli (Borxesning so'zlariga ko'ra) ushbu mavzuga ko'p dunyo kontekstini olib keldi va bunday fikrlashni "ayrilish yo'llari bog'i" deb atadi. Savolning ma'nosi bir-biridan ajralgan alternativalarni birlashtiruvchi tushuncha yoki g'oyaga egami yoki yo'qmi - yig'ilish nuqtasi (Chardin bo'yicha Omega nuqtasi). Mixail Naumovichning javobi esa tsivilizatsiyani kengayib borayotgan alternativalar doirasi sifatida tushunishni juda yaxshi ifodaladi. Mana u shunday dedi:

"Bilasizmi, biz nafaqat jismoniy, balki "aqliy" kengayib borayotgan koinotda yashayapmiz. Va bu yugurish - tushunchalar, fanlar, ijodiy uslublarning ko'payishi - o'z an'analari chegaralarini doimiy ravishda chetlab o'tadigan o'sib

borayotgan tsivilizatsiya belgisidir. Va, shu bilan birga, men Omega nuqtasi bizni oxirida kutmaydi, degan fikrni bildirmoqchiman, lekin bu sintez har bir yangi tahlil akti bilan yuzaga keladi. Ya'ni, chuqur tahlil bizni sintezning yangi bosqichiga yetaklaydi". - Menimcha, bu men yuqorida muhokama qilgan ko'p dunyoli proyektiv fikrlash mantig'ining aniq umumlashtirishidir. Tahlilning har bir yangi darajasi voqelikni yangi, mavhumroq va kengroq tanlashga olib keladi. Proyektiv fikrlash ruhiy ierarxiyani yaratadi, shuning uchun muammolarni tushunishning har bir keyingi bosqichi ham tanloving yangi bosqichidir.

Tan olmoqchimanki, aynan shu bayonot meni proyektiv fikrlashning ko'p dunyo mantiqiy tuzilishi haqidagi taxminga olib keldi. Aslini olganda, proyektiv fikrlash har doim dizayn kontseptsiyasining birlashtiruvchi kontekstidagi har xil va hatto qarama-qarshi ma'nolarning sintezi bo'lib, har qanday hodisani umumiyoq kontekstga kiritadi. Va, albatta, bu yerda fikrning faol, dunyoni shakllantiruvchi roli va uni ifodalash (logotiplar) voqelikni yaratishda qabul qilinadi. Bejiz emas, keyingi suhbatda Mixail Epshteynning aforistik iborasi yangradi: "Avvalida Logos bor edi va bo'ladi". Aynan shu yerda so'zning asosiy ma'nosи, uning yangi voqeliklarni ochishdagi tashabbuskorlik roli ta'kidlanadi. Buni M.Epshteynning materiya "axborot kodlarining ko'rinishi" degan bayonoti ham tasdiqlaydi. Bu 1-bobda mavjudlikning bipolyar tabiat, materiya axborot va mafkuraviy tarkibning bir shakli ekanligi haqidagi postulat bilan juda mos keladi.

Proyektiv fikrlash imkoniyatlari va dolzarbligini tasavvur qilish uchun men o'quvchilarga M. Epshteynning "Bilim - bu kuch" (4) jurnalida chop etilgan proyektiv fikrlashning ahamiyatiga bag'ishlangan qisqa, ammo juda keng qamrovli maqolasini o'qishni tavsiya qilaman. Unda Mixail Naumovich bunday fikrlashning ulkan va tobora ortib borayotgan rolini o'ziga tortadi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot. U yozmoqda:

«Nazariy bilimlar ham borgan sari proyektiv bo'lib, o'z predmetidagi tizimli o'zgarishlarga aylanib bormoqda... Fanda bunday proyektiv metodologiyaga yo'll nafaqat 1920-1930-yillardagi kvant fizikasi tomonidan ochib berilgan, u o'zaro bog'liqlikni ochgan. ob'ektlar va kuzatish ob'ektlari mikrokosmos darajasida, lekin ancha oldinroq - kimyoviy elementlarning davriy jadvalini D.I. Mendeleev. Davriy jadval qisman ma'lum bo'lgan elementlarga, qisman hali kashf qilinmagan elementlarga tegishli bo'lgan elementlarning atom og'irliklari va kimyoviy xossalaring shunday umumlashmalariga asoslanadi, ya'ni. nazariya jadvalning bo'sh kataklari bilan ifodalanadigan bashorat qilinadigan imkoniyatlar sohalarini o'z ichiga oladi.»

Bunga shuni qo'shimcha qilmoqchimanki, har qanday ilmiy kashfiyat idrokdan, idrokdan boshlanadi. Bunday tushuncha tadqiqotchiga o'zining intellektual izlanish maqsadini ko'rishga imkon beradigan o'ziga xos bashoratli qarashdir. Aynan shu hodisa, qoida tariqasida, har qanday aqliy loyihaning proaktiv fikrlashning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Menimcha, bu nafaqat ilmiy izlanishlarda, balki inson ijodining har qanday sohasida ham shunday. Tan olamanki, ilmiy izlanishlar uchun idrok majburiyatiga e'tiroz bildirish mumkin. Lekin, har holda, bu, mening fikrimcha, falsafiy tadqiqotlar uchun qiziqarli va muhim muammodir. Biroq, Mixail Epshteynning baholashidagi proaktiv fikrlash roliga qaytishga ijozat bering:

"Yangi elektron texnologiyalar bilimlar tarkibida tub o'zgarishlarni amalga oshiradi, chunki ular asrlar davomida to'plangan axborot resurslarini bir zumda o'zgartirish imkonini beradi. Ma'lumotlar bazalari har bir yangi kashfiyat va ixtiro bilan bir zumda yangilanadi, holbuki o'tmishda Gutenberg galaktikasida bu jarayon bir qog'oz nashrdan boshqasiga o'tib, ko'p yillar davom etgan. O'lik bilim va tirik tafakkur o'rtasidagi nisbat tez sur'atlar bilan jonli tafakkur foydasiga o'zgarib bormoqda, "o'tmishdagi mehnat" (mashinalar, qurilmalar, tsivilizatsiyaning barcha moddiy boyliklari va texnik vositalarida mujassamlangan) va tirik intellektual mehnat o'rtasidagi nisbat, yangi g'oyalalar va narsalarni ishlab chiqarish uchun barcha bu bilim zaxiralari ..." (4)

Men, albatta, Mixail Naumovichning bu kuzatishlariga qo'shilaman! Axborot texnologiyalari bilan jihozlangan zamonaviy dunyoda voqelikni to'g'ridan-to'g'ri, ijodiy tanlashning ahamiyati va salmog'i shiddat bilan oshib bormoqda. Oldingi ko'plab maqlolalarda kvant kompyuterlarining faraziy imkoniyatlari haqida yozishim kerak edi. Mening taxminlarimga ko'ra, ma'lum bir kuch chegarasiga erishgandan so'ng, ular makroreallikni to'g'ridan-to'g'ri tanlash uchun vositalar bo'ladi, ya'ni. atrofimizdagi dunyoda g'oyalarni amalga oshirish vositasi. Xohlaysizmi yoki yo'qmi, lekin, har holda, M.Epshteyn ko'rsatgan tendentsiya tadqiqotchilarning izlanish yo'nalishi va ko'zlagan maqsadlari uchun insonparvarlik, ma'naviy javobgarligini tubdan kuchaytiradi. Bu keltirilgan maqlolada ishlab chiqilgan g'oyalalar bilan mos keladi:

"Har biri koinotdagi barcha zarrachalarni hisoblashga qodir bu kompyuterlar bilan nima qilamiz? Biz qayta-qayta ma'lum bo'lgan narsalar chegarasiga qarshi turamizmi? Yoki ob'ektiv bilimlarning bunday o'sib borayotgan kuchi yangi olamlarni yaratishga qodir, ya'ni mavjud koinot va u haqidagi bilimlardan tashqariga chiqishga qodir bo'lgan proaktiv fikrlashning cheksiz kuchiga o'tish

bosqichidir. Endi bilim deb hisoblangan narsa boshqa mavjudotning imkoniyatiga o'tadi, ya'ni. ko'paytirmaydi, balki o'z ob'ektini loyihalashtiradi va ishlab chiqaradi

Biz nanozarrachalarning xususiyatlarini ularni muhandislik va loyihalash jarayonida o'rganish, ulardan yangi materiallar yaratish. Biz genlarning xususiyatlarini genomning ishchi modelini yaratish va genetik tibbiyat va muhandislikni rivojlanadirish jarayonida o'rganamiz. Muayyan ob'ektni bilishning o'zi uni yaratish aktiga aylanadi. Bu endi faqat o'zgarmas, statik voqelikni bilish emas, balki bir proyektiv fikrlash aktida o'z ob'ektini anglaydigan va yaratadigan aqliy konstruktsiyadir. (to'rt)

Bundan tashqari, Mixail Epshteyn gumanistik fanlardagi ijodiy tanazzuldan, zamonaviy falsafada proyektiv fikrlashning etishmasligidan shikoyat qiladi: "19-asrda insoniyat taqdiridagi keyingi davr qandaydir estetik risolalar, filologik tadqiqotlar, falsafiy aforizmlar, she'riy mulohazalarning paydo bo'lishi bilan belgilanishini tasavvur qilish mumkinmi? Microsoft yoki Google emas, BMT yoki NATO emas, siyosatchilar yoki texnologlar emas, balki qandaydir yangi Novalis, Bayron, Gyugo, Madam de Stael va aka-uka Shlegellarmi? Yo'q, buni tasavvur qilib bo'lmaydi. O'qish va qayta o'qish, matnlarni tahlil va talqin qilishdan boshqa hech kim insonparvarlikdan hech narsani kutmaydi. Gumanizm tekstologiyaga aylandi va insoniy fan bo'lishni to'xtatdi. Shuning uchun u insoniy naslchilikni to'xtatdi. Faqat matnlar va arxivlarni bilish, endi hech qayoqqa olib bormaydi."(4) Ushbu baholashga to'liq qo'shilaman! Mixail Epshteyn innovatsion falsafiy loyihalarning yo'qligini sivilizatsiya uchun halokatli deb hisoblaydi. U yozmoqda: "Deyarli hamma narsa allaqachon mumkin - lekin bu nima uchun? Vositalar ko'payadi, maqsadlar yo'qoladi. Microsoft yoki Google, texnologik korporatsiyalar sifatida, o'zлari ishlab chiqaradigan narsaning insoniy ma'nolarini aniqlay olmaydi. Insoniy ma'no va maqsadlar bo'shlig'i shakllanadi, uni texnologiya to'ldira olmaydi, insonparvarlik esa buni istamaydi".

Lekin, menimcha, bu yerda nafaqat insonparvarlik, balki butun tsivilizatsiyaning insonparvarlik qiyofasiga da'vo qilish mumkin. Zamonaviy sivilizatsiya Rene Guenonning majoziy ifodasiga ko'ra, o'zining ma'naviy mazmunini "qattiqlashtirish" yo'nalishida rivojlandi. U materialistik paradigmaga asoslangan bo'lib, u pragmatik, merkantil va egoistik munosabatlar orqali ma'naviy o'sish imkoniyatlarini keskin ravishda kesib tashlaydi. Zamonaviy madaniyatda ma'naviyat muqaddaslashtirildi, shuning uchun bizning tsivilizatsiyamizdagi proyektiv fikrlash taraqqiyotni ta'minlaydigan gumanitar ijod ko'lamiga erisha olmaydi. Sivilizatsiya juda tez insoniylikdan mahrum bo'ladi, g'ayritabiyy mashina xarakteriga ega bo'ladi. Madaniyat degradatsiyasining o'ziga xos kompensatsion

mexanizmi sifatida postmodern falsafa ma'naviy qadriyatlarning nisbiyligi haqidagi aldamchi shiorni ilgari surdi.

Nazarimda, ma'naviyat har qanday sivilizatsiyaning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi, u hayot-mamot masalalarini belgilaydi. Shuning uchun u, albatta, muqaddas bo'lishi kerak, u inson ijodining boshlang'ich nuqtasi bo'lishi kerak. Faqat bu progressiv taraqqiyot va dinamik barqarorlikni ta'minlaydi. Menimcha, an'anaviy ma'naviyat egoistik relativizm bilan solishtirganda, proyektiv fikrlashning beqiyos keng ko'lamini amalga oshiradi. Shuning uchun, men uchun proyektiv tanloving yorqin va xarakterli namunasi bu aqliy ibodatdir. Ha, ha, ibodat qiluvchilarning dunyoviy ahvoldidan, ularning aql-zakovati va bilimidan qat'i nazar, odamlarga yordam beradigan va insoniy haqiqatni o'zgartiradigan yuksak ma'naviy kuchlarga murojaat qilishning qadimiyligi shakli.

Mixail Epshteyn nafaqat insonparvarlik proyektiv fikrlash zarurligi haqida gapiribgina qolmay, balki bu zudlik bilan zarur bo'lgan ruhiy haqiqatni qurishi ham muhimdir. Shu ma'noda uning "So'z tuhfasi" asarini juda muhim va qiziqarli deb bilaman. (5) Mana, menimcha, uning bayonoti juda qiziq:

"Kelajakni turli janrlarda tasvirlash mumkin: fol ochish, bashorat qilish, apokalipsis, utopiya yoki distopiya, siyosiy yoki estetik manifest, ilmiy faraz, ilmiy-fantastik roman yoki film... Lekin eng tejamkor, ta'bir joiz bo'lsa, kelajakni tasvirlashning minimal janri yangi so'z, neologizmdir. U nafaqat mumkin bo'lgan kelajakni tasvirlaydi, balki aynan shu imkoniyatni yaratadi, chunki u tilda faoliyat yurituvchi ma'nolar doirasini kengaytiradi. Va tilda nima bor, keyin unda aql; nima ko'ngilda, keyin esa amalda. Bitta so'z yangi nazariyalar va amaliyotlarning urug'idir, xuddi bir urug'da ko'plab kelajakdag'i o'simliklar yotqizilganidek. ...Endi kun tartibida tilning o'tmishdan kelajakka otiladigan ko'prik sifatidagi vaqtinchalik, dasturlash rolini ko'rib chiqish turibdi.

Yuqorida aytilganlar ko'p dunyo paradigmasi kontekstida ma'naviy voqelikning kvanti sifatida so'zning rolini tushunishga juda mos keladi. (6) Har biri universal miqyosda ochiladigan yopiq ruhiy haqiqat bo'lgan ushbu kvantlardan insoniyat ma'naviy hayotining keyingi butun ierarxiyasi shakllanadi. So'z inson tomonidan yaratilgan ma'naviy dunyoning asosiy qurilish blokidir. Bu elementar ramz bo'lib, unda kelajakdag'i voqelikning embrionida bo'lgani kabi, turli xil ma'nolar, ya'ni bu haqiqat o'sadigan o'lchovlar qo'yilgan. Lekin, umuman olganda, so'zga ko'rsatilgan ma'no berish borliqning ruhiy qutbi faoliyatining tasdig'idir.

Menga Mixail Epshteynning "oq tuynuklar" shaklida tuzilgan proyektiv g'oyasi juda yoqdi. Uning ta'rifiga ko'ra, "bular yangi belgilar tug'iladigan belgilar tizimidagi bo'shliqlardir". Men uchun "oq tuynuk" tushunchasi tasavvur qilib

bo'lmaydigan, printsipial jihatdan ma'nolarning kvant superpozitsiyasi modeliga o'xshaydi.

Xulosa qilib, men proyektiv fikrlashning umumlashtirilgan sifatli bahosini bermoqchiman. Proyektiv fikrlash zamonaviy tsivilizatsiya imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur bo'lgan samarali vositadir. Bu sizga rivojlanishning mumkin bo'lgan variantlari sonini kengaytirishga imkon beradi va insoniyatning omon qolish manbasini sezilarli darajada oshiradi. Ammo, o'z-o'zidan, proyektiv fikrlash progressiv taraqqiyot va barqarorlikni kafolatlamaydi. Inson ongi ham foydali, ham halokatli yo'llarni yaratishga birdek qodir. Najotning axloqiy, sifatli, salohiyatini, ayniqsa, intellektual va ma'naviy paradigma sifatida ajratib ko'rsatish kerak. Bu, menimcha, proyektiv fikrlash xizmat qilishi kerak.

### **3-mavzu. Dizayn loyihalashda chizmatasvir va rangtasvirning o'rni. (4 soat)**

Dizaynning barcha turlarida va janrlarida kompozitsiya masalasini hal etish etakchi o'rnlarda turadi, desak yanglishmaymiz. Buning uchun esa har bir 6 san'at turiga muvofiq tarzda kompozitsiya asoslarini qo'llay bilish kerak. Shu o'rinda kompozitsiya umumqoidalari puxta o'rganilishi zarur. Ular akademik qalamtasvirlar yaratish, o'rganish, mashq qilish jarayonining ham ajralmas qismidir. Masalan tasvirning yaxlitligi, tomonlari va qismlarining o'lchami, mutanosibligi, simmetriyaviylik, muvozanat, rang va tus, soya-yorug' munosabatlari, badiyilik me'zonlariga amal qilinishi masalalari, shuningdek, mavzuning aniq-tiniq bo'lishi kerakligi umumqoidalar sirasiga dahldorligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, qalamtasvir barcha tasviriyot sohadarining asosidir. Kompozitsiya qonun-qoidalarisiz esa oddiy tezkor chizgini xam tasavvur etishimiz qiyin. Chunki oddiy xomaki rasmida ham o'ziga xos o'lcham, mutanosiblik, hamda uncha ko'lamli bo'imasada mazmun mavjud bo'ladiki, bu hodisani hech kim inkor qila olmaydi. Ma'lumki, inson qomatini chizish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda albatta akademik rasm ishlash amallari qo'llaniladi. U esa oddiydan murakkabga o'tib borish orqali yuzaga chiqariladi. Odam tasviri talabalar, uni endi chizishni o'rganayotganlar uchun ancha murakkab ishdir. Bu sohaning nazariy qismini o'qib, o'rganish mashqlar uchun chiziladigan vazifalar sifatini oshirishning omilidir. Chunki nafaqat yillar, balki asrlar davomida akademik rasm chizish sirlari ochilib, tadqiq etib, takomillashtirilib kelinmoqda. Shundan ma'lumki o'ziga xos, inkor etib bo'lmaydigan tamoyillar, qonun-qoidalar vujudga kelgan. Ularga amal qilinishi ayniqsa o'rganuvchilarga yordam beradigan

zo'r omildir. Odam qomatini to'liq tasvirlash, uning bosh qismini chizish amallari to'liq o'zlashtirilib olingach boshlangani ma'qul. Shunda dastlabki mashqlardanoq etarli samaraga erishish mumkin bo'ladi. Asosiy e'tibor tanani tadqiq etish va tasvirlash ishiga karatiladi. Ma'lumki inson qaddi-qomatining o'z o'lchamlari, mutanosiblik tamoyillari mavjud. Masalan yosh bola boshining o'lchami tanaga nisbatan jixatdan ancha mutanosiblikda bo'ladi va tanaga, uning balandlik o'lchamiga olti, etti, ba'zan etti yarim karra joylashadi. Albatta bu me'zonlar nisbatan bo'lib turli odamlarda har xillik kasb etadi. Odam qomatini chizishda uning tuzilishini (konstruksiyasini) bilish katta ahamiyatga ega. Buning uchun chizuvchi tananing qanday harakat holatida, qay 7 vaziyatda turganligini qoralama chizgilar qilish orqali tahlil qilish, ko'plab shunday mashqlar bajarishi, so'ng asosiy ishni boshlashi kerak. Chizganda ham qiyofani, uning barcha bo'laklarini alohida-alohida emas, balki yaxlit aks ettirishga urinish, hamda buncha erishish lozim bo'ladi. Ammo har bir bo'lak uning tasvirda tutgan roli ham unutilmasligi kerak. Turgan odam qiyofasini chizishning asosiy amallari nimalardan iborat, degan savolni oldimizga qo'yib, unga javob beraylik: Ilgarigi vazifalardagidek bunisida ham dastlabki maqsad ob'ektini qog'oz sathiga chiroyli qilib joylashtirishdan iboratdir. So'ngra tana turish vaziyati, holati topiladi, keyin qomatning qismlari, o'lchamlari o'zaro mutanosibligi topiladi. Ular odamning keksa yoshligiga, semiz yoki ozg'inligiga, bo'yining past yoki balandligiga bog'liq bo'ladi. Bunda albatta odamning qaysi bir oyog'iga, yoki ikkala oyog'iga tayanib turganligi e'tiborga olinishi muhimdir. Chunki shunga qarab tananing holati o'zgarib turadi. Elka, bosh, bel, tos, qo'l va oyoqlar turishi har xil ko'rinishga ega bo'ladi. Ma'lumki, odam umurtqa pog'onasining tuzilishi ham uning ko'rinishiga ta'sir etadi. Ba'zi tanalarning turishi tik bo'lsa, ba'zilari bukchayibroq ko'rinishi shundan. Tananing har bir a'zosi gorizontal va vertikal chiziqlarga nisbatan qanday vaziyatda ekanligi muntazam ravishda tekshirib turiladi. Butun tananing tayanch nuqtasi mavjud bo'lib, u og'irlik qaysi oyoqqa tushayotganiga, yoki ular oralig'iga tushayotganini aniqlashda qo'l keladi. U to'g'ri, joyida topilmagan bo'lsa, odam qiyofasi og'ib, yiqilayotganga o'xshab chiqib qolishi mumkin. Shu sababdan tekshirish uchun ba'zan osma shovundan foydalanish mumkin. U barcha perpendikulyarlarni topishda zo'r vositadir. Odam qiyofasini chizishni o'rganishda uni skelet bilan solishtirib tekshirish, tananing asosiy mushaklari tizimini Gudon «ekorshe»sidan ko'rib o'rganish maqsadga muvofiq. Ana shunda chizuvchi tananing qaysi bo'lagiga urg'u berishi va batafsil ishlashi kerakligini tushunishi oson bo'ladi. Chunki suyaklar tizimini belgilovchi skelet va mushaklar tana qismlarining shakli-shamoyilini yaqqol qilib aks ettirishda yordam beradi. Umuman yuqoridagilarni sifatli bajarilishi uchun har bir talaba plastik anatomiyadan yaxshi xabardor bo'lishi zarur. Shuni ham ta'kidlash o'rinniki, ishni

bajarishda soya-yorug‘ munosabatlarini to‘g‘ri topib tasvirlash ham ahamiyat kasb etadi. Chizish mobaynida katta soyalar va yorug‘, yarimsoyalarni birvarakay belgilab tuslab borilishi tasvirning hajmli ko‘rinishini 8 ta’minlaydi. Umum tanani aks ettirishda uning mayda qismlarini ham yo‘lyo‘lakay aniqlashtirib boriladi, ammo bunda yaxlitlikka putur etkazilmasligi kerak. Tasvirlash jarayoni izchillikda bosqichma-bosqich olib borilsa, oxirida barcha tomondan ish tekshirib umumlashtirilsa vazifa yaxshi chiqishi ta’milanadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, vazifani tugal holga keltirish tajribaga, ya’ni ko‘p, erinmay, sabot bilan ish olib borilishiga bog‘liqdir. Nazariy bilimlarni o‘tmish usta rassomlari merosini kitoblardan o‘qib o‘rganish yordamida oshirib borilishi kerak.

## V. KEYSALAR BANKI

### Keys.

Dizaynerlarni dizayn nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

Milliy natyurmortni tasviri san’at o‘qitishning zamonaviy texnologiyasini qo‘llanilishini tushuntirish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

### Кейсни бажариш босқчилари ва топшириклар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг(индивидуал ва кичик гурӯҳда).
- Dizaynerlarga амалий машғулотлар асосида зарурий билиmlарни бериш.

Dizayn turlari va sohalarini rivojlantirish metodikasi dasturi:

1. Tinglovchiga tasvirlanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug‘liklar va ulardagi tuslarning xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;

2. Dizaynerlarni chizmatasvir nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Mashg‘ulot paytida:

Tinglovchi va talabalarning asosiy va yuqori amaliy bilimlardan qoniqish hosil qilishlari uchun o‘quv ustaxonasi kerakli yorug‘lik va chizmatasvirda qo‘llaniladigan zarur jihozlar bilan ta’minlanishi kerak.

Ishlatiladigan ashyolar;

har xil yumshoqlikdagi oddiy grafitli qalamlar, ko‘mir, sous, sagina. planshet,qog‘oz, o‘chirgich.

chizmatasvir ishlash uchun dastgoh (molbert).

**3-ilova**



**TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVALINI** - guruhlarga qo'llash, o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### **TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVAL.**

1-guruh

**Intyer, kompozitsiyasi mavzusida ishlash** zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izohlang.


2-guruh

**Intyer kompozitsiyasi mavzusida ishlash** zamonaviy pedagogik texnologiyalarda tasvirlash.

### **TOIFALASH JADVALI**

<b>Perespektiva turlari.</b>		
<b>Chiziqli perespektiva</b>	<b>Fazoviy perespektiva</b>	<b>Perespektivada tasvirni o'zlashtirish:</b>

Giometrik qurilish uslubida	Tasviriy san'at tur va janr, asarlarida kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo muxiti ta'sirida tus va ranglarni o'zlashtirishni o'rganadi.	Ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kartina tekisligi, ko'rish nuqtasi, ko'rish maydoni
-----------------------------	--	--



### KONSEPTUAL JADVAL

Interyer,kompozitsi yasi mavzusida ishslash	Interyerda, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar	
	Pedagogik vazifa	Amalga oshiriladigan ishlar
Interyer,kompozitsi yada to'g'ri ko'rish idrokini rivojlantirish	Interyerda rang, shakllar va miqdor, o'lchamni bilish	Xonadagi ichki ko'rinishni to'g'ri topish, Interyer,kompozitsiyasida <b>ishslash</b> noto'g'ri joylashgan buyumlarni aniqlash, xonadagi buyumlarni yetmagan elementlarini tasvirlash.

Ko‘rish xotirasi hajmini kengaytirish va uni aniqlashtirish	Xonadagi buyumlarni shakllarni eslab qolish	Stolga 5-6 ta interyerni tasviri asosida rasmlar qo‘yiladi, buni talabalar eslab qolishlari kerak, so‘ng rasmlardan biri olib qo‘yiladi talabalar rasmlarni qayta ko‘rib, qaysi rasm yo‘qligini topishlari kerak.
Fazoviy tasavvurlarni shakllantirish	O‘ng, chap, yon, orqa, old, baland, past kabi fazoviy mo‘ljal olish	Perespektivada chap tomonida qanday predmetlar borlig‘ni ko‘rsatishni taklif etish: xonani derazalari qaysi tomoningda turibdi, eshik, shkaf qaysi tomonida turibdi, stol va stullarni joylanishini tekshiring.
Ko‘rish analizi va sintezini rivojlantirish	Tasvirlashda interyerni elementlarini ko‘rib analizi va sintezini rivojlantirish va tasvirlash	Ko‘rsatilgan interyerda peres pektivani chizilgan loyxada ko‘rsating, - Xonani ichki jixozlanishini ko‘rsating.

**Tavsiya qilinayotgan tasvirlar o‘zbek xalq amaliy bezak san’ati bilan mo‘jaz rangtasvir – miniatyura san’atining uyg‘unlashuviga oydinlik kiritadi**

## **VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI**

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'lif tegishli o'quv moduli bo'yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi va uning natijasida tinglovchilar bitiruv ishi dirasida referat yoki kurs ishini tayyorlaydi.

Mustaqil ish talablari har bir tinglovchi o'zi tanlagan rassom ijodi yoki badiiy asar taqdimotini tayyorlaydi.

Mustaqil ish taqdimoti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- Sarvaraq;
- annotatsiya;
- mundarija;
- asosiy qism: nazariy tahlil;
- illyustratsiyalar ilovasi;
- xulosa:;
- glossariy;
- adabiyotlar ro'yxati.

Keyslar banki;

Boshqa materiallar (fanni o'zlashtirishga yordam beruvchi qo'shimcha materiallar: elektron ta'lif resurslari, ma'ruza matni, glossariy, test, krossvord va boshq.)

Shuningdek, mustaqil ta'lif jarayonida tinglovchi kasbiy faoliyati natijalarini va talabalar uchun yaratilgan o'quv-metodik resurslarini "Elektron potrfolio" tizimiga kiritib borishi lozim.

### **Mustaqil ish mavzulari**

Kompyuter grafikasi haqida ma'lumot.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasi va uning asosiy vazifalari.

Belgi va ramziy belgilari kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining qo'llash imkoniyatlari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasi kursiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Belgi va ramziy belgilari kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining texnik vositalari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasida qo'llaniladigan grafik dasturlar haqida ma'lumot.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Windows amaliyot tizimidagi grafik muharrir.

Belgi va ramziy belgilari kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Corel Draw grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis

imkoniyatlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Adobe Photoshop grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis imkoniyatlari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Auto CAD grafik muharriri.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Grafik muharrirlarda chizma, rasmlarni tahrirlash va printer qurilmasi yordamida chop qilishni o‘rganish.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasining turlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasi qanday fan ?

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasidan foydalanish.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Grafik chiqarish qurilmalari.

Badiiy vositalar tekst modellari va palitra ga qo‘s himcha effektlar, tasvirlarni yaratish va chiqarish haqida ma’lumot.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining qanday turlari mavjud?

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Tasvirlar animatsiyasi haqida ma’lumot.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Taqdimotlar va uni yaratish usullari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasining rivojlanish bosqichlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining fanlar bilan aloqasi.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasining hayotga tatbig‘i.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Dizayn san’atida zamonaviy reklamaning o‘rni.

Dizayn texnologiyasi, asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Badiiy loyihalashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Belgi va ramziy belgilarning kelib chiqish tarixi, ularning turlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

## VII. GLOSSARIY

**Antropometriya** (yunoncha so‘z «antropos» - odam, «metron» - o‘lchov ma’nosini bildiradi) – antropologiyaning bir bo‘limi hisoblanib, odam tanasining tuzilishi, asosiy harakat va holatini, tavsif o‘lchamlarini o‘rganadi. Antropometriya turli jinsdagi, yoshdagi, etnik jihatdan mansubligi va geografik regioniga qarab odamlar uchun o‘rta katta-kichik meyorlarini o‘rnatadi. Antropometriya asoslari, mahsulot va binolarni proeksiyalashda, ularning odamlarga loyiq ta’minalash maqsadida va ohir-oqibat qulay ishlatilishida va qulaylik yaratishda keng foydalilanildi.

**Badiiy konstruksiya** – loyihalsh faoliyatining alohida tarzdagi xilma-xil obektlari bo‘lmish sanoat va maishiy yo‘nalishdagi mahsulotlar, yirik seriyalarda sanoatlashgan uslubda ishlab chiqarilishi. Badiiy konstruksiya ob’ektlarining xarakterli xususiyati-ularning ishlanmasida injener-kosntuktor va texnologlarning qatnashishlari zarurligi. Rassom-konstruktor mahsulot ishlanmasi ustida, texnikaviy estetikaning, nazariy va metodologik bilimlariga tayangan holda ish olib boradi.

**Badiiy loyihalash** – uni tarkibiy qismiga kiruvchi badiiy konstruksiyaga nisbatan, mahsulotlarni ishlab-chiqarish jarayonida kengroq doirasidir. Uning ob’ektig, hozirgi paytgacha yig‘ilgan metodlar bo‘yicha ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlar kiradi.

**Badiiy sifat** – mahsulotning inter’er vash u kabilar tashqi ko‘rinishida, afzalliklari, shakl va elementlar o‘lchamlarining o‘zaro uyg‘unligi, mutanosibligini, ritmik tuzilishi, fakturasini, rang va boshqa kompozitsion xarakteristikalarini aniqlaydi. Badiiy sifat asosiy ko‘rsatkichlaridan biri, odam uchun xizmat qiladigan predmet muhitining organik elementi sifatida, barcha xarakteristik shakllarni, mahsulotning asosiy g‘oya echimiga bo‘ysundirishdir.

**Badiiy uslub** (stil) – badiiy ijod doirasiga mansub bo‘lib, mavjud bo‘lgan qator umumiyligi tomonlarga ega me’morchilikda, san’at asarlarida, dizaynda tarixiy bosqichning u yoki bu davrlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Badiiy uslub ko‘pincha buyumlarning me’morchilik va badiiy asarlarida kompozitsion qurilishida namoyish etiladi.

**Dekor** (lotincha «dekor» so‘zidan – bezayman, ma’nosini bildiradi) – bezak elementlari va mahsulot bezagini to‘plami. Dekorning asosiy ko‘rinishlari: ornamentika, tasviriy va arxitektura motivlari, bezakli qoplami. Rivojlangan dekor, dekorativ – amaliy san’at mahsuloti uchun xarakterlidir, ayniqsa o‘tmishda, uning shakliga atayin bezatish uchun kirtilgan element (detal)lar ko‘rinishida tez-tez chiqib turgan. Dekor xarakteri, biron ta ustani buyumlarning go‘zallik mohiyatini, davr tasavvurlari orqali aniqlanadi.

**Dekorativlik** – shakl ta’sirchanligi shartlaridan biri, mahsulot hususiyati, uning shakl va siluet konfiguratsiya hosiyatlari, hamda materialning rangi, faktura va teksturasi bilan bog‘liqdir. Ko‘pincha dekorativlikni dekor elementlarining qo‘llanilishi, masalan ornamentika bilan bog‘lashadi. Lekan bu vaziyatda dekorativlik emas, balki mahsulot dekorativligi deyilsa, to‘g‘ri aytilgan bo‘ladi. Aslida dekorativlik barcha dekorlardan mahrum bo‘lgan ko‘pgina predmetlarda, masalan: radiopryomnik, avtomobillar, metallning ustki qoplami, kristallar, o‘simliklar bargi va boshqa narsalarda mavjuddir.

Mahsulotning dekorativligi, shaklning tartibga solinishi va mantiqiy konstruktivligi, ritmi, rangi, mutanosibligi, faktura vash u kabilarning tashkil etilishiga bog‘liqdir.

**Dizayn** (inglizcha «design» so‘zidan – chizma, rasm, loyiha ma’nosini bildiradi).

- 1) badiiy konstruksiyalash;
- 2) mahsus faoliyat sohasi, odamlarning hayotiy shart-sharoitlari uchun atroflicha bajarilgan loyiha va ilmiy-tashkiliy ishlanmasidan iborat.

**Disgarmoniya** (yunoncha «harmonia» so‘zidan – garmoniya, uyg‘unlik, «dis» - old qo‘sishmcha bo‘lib, inkor etish ma’nosini anglatadi) – muvofiqlashmaganlik, shaklg barcha va alohida bo‘lgan xususiyatlari orasidagi qarama-qarshilik, masalan: mahsulotning ritmik tuzilmasi bilan uning rang echimi orasidagi ziddiyat. Shaklda disgarmonianing paydo bo‘lishi, uning badiiy sifatini pasayishiga olib boradi.

**Inter’er** (fransuzcha «intieieur» so‘zidan – ichki ma’nosini bildiradi) – binoning ichki muhitining, funksional – estetik munosabatda, nisbatan yopilgan va tashkil etilganligidir. Inter’er xona to‘sinq sirtlari (devor, ship, pol) va uning barcha jihozlash va bezatish vositalari to‘plamidan tashkil topadi.

**Kompaktlik** (lotincha «compactus» so‘zidan – zich, g‘uj, yig‘ilganlik ma’nosini bildiradi) – shakl elementlarining joylashuvida maksimal zichligi. Kompaktlik darajasidan, mahsulotning quyilganligi aniqlanadi.

**Kompleks loyihalash** – qator mahsulotlarning loyihalanishi, odamning ish faoliyatini muayyan jarayonidagi talablarni to‘liq ta’minlash; masalan, oshxona uchun jihozlar, maktab uchun mebel va hk. Kompleks loyihalashning maqsadi, odamlar uchun iloji boricha dam olishda, uyda, ishxonalarda qulaylikni, uyg‘unlikni va badiiy muhitni yaratishdir.

**Kompozitsiya** (lotincha «compositio» so‘zidan – o‘ylab chiqaraman, tuzaman, yarataman ma’nosini anglatadi) – mahsulotning muayyan maqsadga hizmat qiladigan tartibda joylashuvi va ularning muvofiqligi.

**Komponovka** (lotinya «compono» so‘zidan – tuzaman ma’nosini anglatadi) – turli elementlarning o‘zaro mos qilib joylashtirishning qidiriv jarayoni.

**Komfort** («copfort» - inglizcha so‘z bo‘lib) odamning ma’lum bir narsa yoki ba’zi buyumlar to‘plamidan oladigan barcha qulayliklar yig‘indisidir. Mahsulotlar qulaylikning talabiga to‘liq javob bersa, ular huzur-halovatli hisoblanadi. Bunday qulayliklarning yo‘qligi esa, ma’lum ish jarayoni muhitida diskomfortni yuzaga keltiradi.

**Konstruksiya** («constructio» lotincha so‘z bo‘lib – quraman ma’nosini anglatadi) mahsulot elementlarining o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi. Konstruksiyaning hosiyati, asosan mahsulot elementlarining o‘zaro bog‘lanishida va o‘zaro joylashuvida aniqlanadi.

**Konstruksiya tipologiyasi** – mahsulot elemetlarining o‘zaro bog‘liqligini, konstruktiv klassifikatsiya tiplaridagi farqlari.

Konstruksiya klassifikatsiyasining asoslariga:

- 1) elementlarning bog‘lanish tipii (ajralmas, ajraladigan; yig‘iladigan va bo‘linadigan);
- 2) elementlarning o‘zaro munosabat tipii (turg‘un; kinetik);
- 3) ularning ulanish sxemasi va usuli; (yahlit; karkasli; jildli; to‘plamli);
- 4) ma’lum mahsulotning boshqa buyumlar bilan bog‘lanish konstruksiya tipii (avtomnom; blokklanadigan);
- 5) funksional holatning tipii (statsionar; safarbar; ihcham);
- 6) konstruksiyaning asosiy va asosiy bo‘lmagan elementlarini o‘zaro munosabat tipii (ochiq; yopiq; yarim ochiq) va h.k..

**Mahsulotlarning assortimenti** (fransuzcha so‘z bo‘lib «assortiment») – ko‘p mahsulotlarning turlicha modellarining bir muhitda tadbiq etilishi, jihozlarning bir maqsad yoki turdagи to‘plami ma’nosini anglatadi. Masalan, maishiy yo‘nalishda, turar joyda oshxonani jihozlash uchun mahsulot assortimenti, oshxona uchun idish-tavoqlar assortiment iva boshqalar. Assortimenti, bir vaqtning ichida ishlab chiqarilgan modellargina tashkil etishi mumkin.

**Mahsulotlar kompleksi** – turli funksional yo‘nalishdagi mahsulotlar to‘plami, odamning muayyan ish jarayonida vositalarning umumiyl sistemasini shakllantiradi.

**Mahsulotning sifati** – sanoat mahsulotlarini o‘lchov qiymati, ularning hususiyatlarini baholash nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, barcha ko‘rsatilayotgan talablarga muvofiq, hamda zamonaviy texnologiyaning yuqori ko‘rsatkichlari bilan ularning ishlab chiqarish texnologiyasi darajasining muvofiqligi.

**Mahsulotning sifatini baholashning asosiy aspektlari** – bu ularning foydali bo‘lishi, texnik va texnologik mukammalligi, ergonomik talablarga javob berishi, tejamkorli bo‘lishi, ishlatishda qulayligi, badiiy sifatining estetik qimmatligidir.

**Mahsulotning foydali bo‘lishi** – jamiyatning va odamlarning mahsulotni ishlab chiqarishda, hamda iste’mol qilinish qiziqishlari nuqtai nazaridan kelib chiqadigan zarurat darajasi. Mahsulot jamiyatning qiziqishlariga javob bera olishi va jamiyat talabiga muvofiq, uning foydali ekanligi aniqlanadi.

**Moda** (lotinyaa so‘z bo‘lib, o‘lchov, shakl, uslub ma’nosini anglatadi) – zamonaviy talabga javob bera oladigan va odamlarning aynan shu narsalarga ega bo‘lish intilishiga ko‘ra, sanoat mahsulotlari va boshqa buyumlarning ishlatilishida namoyon bo‘ladi. Odatda, buyumning yuqori sifati bilan ajralib turishi, texnik jihatdan yangiligi yoki boshqa yorqin ifodalaydigan hosiyatlari bilan ajralib turishi ifodalanadi, masalan, ko‘rinishining ajoyibligi, yuqori chidamligi, ihchamligi, qulayligi va hk..

**Nufuzli (prestij) iste’mol qilish** («presstij» - fransuzcha so‘z «presnige» - qadr-qimmat ma’nosini anglatadi) – bu buyumlarning shunday ishlatilishi-ki, unda iste’molchi, shu orqali o‘zining faravonligini, madaniyatini, odamlarning qaysi tabaqasiga mansub ekanligini namoyish etadi.

**Ornamentika** (lotincha so‘z «ornamentum» - ziynatlash, zeb berish, bezatish ma’nosini bildiradi) – dekorning xilma-xilligi, buyum, bino, kitoblarni va hk. bezash elementlari yig‘indisining, har xil tabiiy shakllar stilida ishlov berishdir, ayniqsa katta qismi o‘simliklardan tashkil topgan, masalan: barglar, gullar, mevalar va shu kabilardir. Tabiiy timsollardan xoli bo‘lgan ornamentika ham g‘oyat tarqalgan, ya’ni asosi geometrik naqshlardan iboratdir. Ornamentika turli usullarda qo‘llaniladi: naqqoshlik, gravirovka, o‘ymakorlik, haykaltaroshlik, kashtachilik, aplikatsiya, tikuvchilik va hk.. Ornamentika milliy hislatga egadir. U juda ko‘p narsalarda ishlatiladi: kiyim-kechak, turli anjomlarda, mebel, zargarlik buyumlarida, hamda inter’erda va shu kabilarda ishlatiladi.

**Predmet muhiti** – mahsulotlarning ma’lum shaklda, birgalikda tashkil etilishi.

**Sanoat mahsuloti** – mahsulotning sanoat usulida ishlab chiqarish, ya’ni mashina texnikasidan foydalanib va shunga binoan, birqancha sondagi o‘hshash nushalarining ishlab chiqarilishi tushuniladi.

**Sanoat mahsulotlarida shakl tuzilishi** – badiiy loyihalashning izlanish jarayonida, mahsulotlar shakl birligi va texnik estetika talablari asosida tarkib topishidir. Sanoat mahsulotlarining shakl tuzilish, asosiy qonuniyatlarga; shakl mahsulotning xarakteristik tarkibiga muvofiqligi; shakl klnstruksiya va materiallarga bog‘liqligi va boshqalar.

**Stayling** (inglizcha so‘z «styling») – badiiy loyihalash yo‘nalishidir. Uning maqsadi xaridorlarni mahsulotlarga jalb qilish. Bu mahsulot tashqi ko‘rinishining ta’sirchanligi, ifodaviylici, shaklning ko‘zga tez ko‘rinishi va bezatilishi orqali

o‘ziga jalb etishidir. Stayling uchun mahsulotlarni o‘tmishning uyg‘onish davri, barokko, klassitsizm va shu kabilar uslubida ishlash xarakterlidir.

**Tashqi ko‘rinish** – bunda, buyumning shakli idrok etish orqali tomosha qilinadi. Shakl elementlari buyumni ishlatish jarayonida idrok etish ham buyumning tashqi ko‘rinishiga kiradi. Mahsulotning idrok etilishida, unga estetik baho berilishi, tashqi ko‘rinish uchun yagona manbaadir.

**Texnik estetika** – ilmiy soha bo‘lib, predmet muhitini shakllanishi va rivojlanishi, odamlarning ish faoliyati jarayonida predmetli sharoit qonuniyatlarini o‘rganadi. Texnik estetikani o‘rganish spetsifik predmeti – bu odamlarning biologik va ijtimoiy mavjudod sifatida predmetli muhit bilan o‘zaro munosabatidir.

**Foydali effekt** – mahsulotlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z o‘rnida ishlatishning natijasidir. Mahsulotning ishlatishda foydali effektning katta-kichikligi, bir qator talablarga amal qiladi: mahsulotning texnik mukammallik darajasi; antropometrik o‘lchovlarga munosibligi; ekspluatatsiya muhitida, uning konstruksiya va shaklning o‘zaro mosligi va hk.. Shunday qilib, foydali effekt mahsulot sifatini belgilashida asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

**Foydalanish qulayligi** – mahsulotni o‘zining joyida oddiy, havfsiz va shu kabi ishlatilishi tushuniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni transportirovka qilish, saqlash, yig‘ishtirish, ta’mirlash emas, uni faqatgina ishlatish, foydalanish jarayonida qo‘llaniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni qurilishi va shakl orqali ta’minlanishi, ularning antropometriya, ergonomika talablariga hamda ekspluatatsiyaning konkret sharoitda mutanosibligidir.

**Shakl** – mahsulotning muhitga mos qurilmasi, ya’ni nuqta, chiziq, qirra, sirt, burchak, shakl, hajm va boshqalarning aniq o‘lchamga ega bo‘lishidir.

**Sanoat** mahsulotlarida shaklning umumiyligi talablaridan biri barcha elementlarning kompozitsion qonuniyatlar asosida muvofiqligi.

**Shaklning ifodaviyligi** – mahsulotning badiiy ko‘rsatkichlaridan biri, bunda buyumning tashqi ko‘rinishi va tuzilishini o‘zaro munosibligi, maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Bundan tashqari, odamning emotsiyal kayfiyatiga ta’sir etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Mahsulotning bunday ta’sir etish hususiyatlaridan biri – uning dekorativ echimini estetik fahimlanishidir.

**Ergonomika** - (yunoncha so‘z bo‘lib, «ergon» - ish, «nomos» - qonun degani) ilmiy-nazariy va ilmiy-eksperimental soha bo‘lib, odamning o‘zgarib turadigan muhitda, ma’lum ta’sirlanishini talab etuvchi har-xil jihozlar va ish faoliyati muhitida vositalarning odamga ta’sir qiladigan psixofiziologik faktorlarini o‘rganadi. Ergonomikaning nazarga oladigan va o‘rganuvchi asosiy faktorlariga har xil qo‘zg‘atuvchilarga odamning munosabati (reaksiyasi), ya’ni optik, tovushli, haroratlari va hk.. kiradi. Shu munosabat bilan, ergonomika odamning fiziologiyasi,

psixofiziologiya bilimlariga tayanadi va loyhalanayotgan ob'ektlar shakliga birqancha talablarni aniqlab beradi.

**Estetik qimmati** – ma'lum mahsulot yoki predmetli muhitining odamlar estetik qarashlariga muvofiqligi. Estetik baholanayotgan ob'ektni, uning barcha hususiyatlarini umumiyligi va ular orasidagi har xil bog'lanishlarning paydo bo'lishi, birinchi tomondan odam, hamda ikkinchi tomondan ijtimoiy muhitini xarakterlaydi.

Umuman olganda, badiiy sifat odatda, mahsulotning estetik ahamiyati shartlaridan biri bo'lib hizmat qiladi.

### **VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Mipziyoyev SH.M. Byyuk kelajagimizni mapd va oljanob xalqimiz bilan bipga qypamiz. – T.: O‘zbekictan, 2017. – 488 b.
2. Mipziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatiy taptib-intizom va shaxciy javobgaplik – hap bip pahbap faoliyatining kyndalik qoidaci bo‘lishi kepak. – T.: O‘zbekicton, 2017. – 104 b.
3. Mipziyoyev SH.M. Epkin va fapovon, demokpatik O‘zbekicton davlatini bipgalikda bappo etamiz. – T.: O‘zbekicton, 2016. – 56 b.
4. “Ta’lim to‘g‘picida”gi O‘zbekicton Pecpyblikacining qonyni. Qonyn hyjjatlapi ma’lymotlapi milliy bazaci, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-con.
5. O‘zbekicton Pecpyblikaci Ppezidentining 2017 yil 16 avgycdag“O‘zbekicton Badiiy akademiyaci faoliyatini yanada takomillashtipish va pivojantipish chopa-tadbiplapi to‘g‘picida”gi PQ-3219-con qapopi. – T.: O‘zbekicton Pecpyblikaci qonyn hyjjatlapi to‘plami, 2017 yil 28 avgyc, 34-con, 876-modda.
6. O‘zbekicton Pecpyblikaci Ppezidentining 2018 yil 25 yanvapdag“Umymiy o‘pta, o‘pta maxcyc va kacb-hynap ta’limi tizimini tybdan takomillashtipish chopa-tadbiplapi to‘g‘picida”gi PF-5313-con Fapmoni. – T.: O‘zbekicton Pecpyblikaci qonyn hyjjatlapi ma’lymotlapi milliy bazaci, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-con.
7. O‘zbekicton Pecpyblikaci Ppezidentining 2020 yil 21 appeldagi «Tacviyi va amaliy can’at cohaci camapadopligrini yanada oshipishga doip chopa-tadbiplapi to‘g‘picida»gi PQ-4688-con qapopi. – T.: Qonyn hyjjatlapi ma’lymotlapi milliy bazaci, 22.04.2020 y., 07/20/4688/0475-con.
8. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlanirish va axborot-komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 4-5-son, 98-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2006 y., 28-29-son, 262-modda).
9. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.
10. Abdyqodipov A.A, Papdayev A.X. Ta’lim japayonini texnologiyalashtipish nazapiyaci va metodologiyaci. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 104 b.
11. Abdyllayev N.A. Can’at tapixi. I tom. – T.: O‘qityvchi, 1987. – 352 b.
12. Abdyllayev N.A. Can’at tapixi. II tom. – T.: Can’at, 2001. – 192 b.
13. Akilova K.B. Napodnoye dekopativno-ppikladnoye ickyccctvo Uzbekictana XX veka [ppoblemi pazvitiya]: Avtopefepat dicceptatsii doktopa ickyccctvovedeniY. NII ickyccctvoznaniY. – T.: 2002. – 57 b.
14. Amipgazin K.J., Udalov C.P. Fopmipovaniye kompetentnoctey v ppotsecce obycheniya dekopativno-ppikladnomy ickyccctvy // Omckiy naychniy vectnik.

2012. №2 (106). – С.223-225.
15. Baymetov B., Alimova G. Maxsus rasm, o'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.
  16. Bulatov S.S., Gulyamov K.M. Amaliy san`at. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 542 b.
  17. Gulyamov K.M., Mirsanov U.M., Ikromov M.H. Vektor grafikasi asoslari. – Toshkent, O'zR FA “Fan” nashriyoti, 2021. – 160 b.
  18. Gulyamov K.M., Mirsanov U.M., Djurayev D.D. Rastr grafikasi asoslari. – Toshkent, O'zR FA “Xalq nashriyoti”, 2022. – 160 b.
  19. Gulyamov K.M. Improving System of Future Applied Art Teachers Training based on Competence Approach // Eastern European Scientific Journal jypnali. – Gepmaniya, 2018. – № 6. – P. 83-88.
  20. Gulyamov K.M. Modern educational technologies for the formation of professional competence of future applied art teachers // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – India, Vol. 10, July 2020. – P. 678-685.
  21. Qodirxo'jayev P. Badiiy bezak san'ati. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
  22. Yo'ldoshev H., Bulatov S. Ustoz va shogird odobi. – T.: Ozbekiston, 2005. – 240 b.
  23. Bylatov C.C. O'zbek xalq amaliy bezak can'ati. – T.: Mehnat, 1991. – 384 b.
  24. Bylatov C.C., Gylyamov K.M. Amaliy can'at Elektron dapclik. №DGU04551 paqamli gyvohnoma. 21.04.2017.
  25. Bositxonov Z. Xandasiy naqsh (girix)larning yechimlari. – T.: Ochiq jamiyatni Instituti Ko'mak Jamg'armasining O'zbek Vakolatnomasi, 2002. – 88 b.
  26. G'oziyev V., Jabbopov U. Faoliyat va xylq atvop mativatsiyaci. – T.: 2003.
  27. G'oziyev E. Psichologiya: (Yosh davplapi psichologiyaci): Ped. inctitytlapi va ynivepcitetlapi ychyn o'qyv qo'llanma. – T.: O'qityvchi, 1994. – 224 b.
  28. Gylyamov K.M. Dekopativno-ppikladnoye ickyccetva Uzbekistana: glibokiye tpaditsii i pazvitiye yzbekckoy shkoli // Naychniy fopym: Filologiya, ickyccetvedeniye i kyltypologiya: cb. ct. po matepialam XIX mejdynap. naych.-ppakt. konf. – № 8(19). – M.: Izd. «MSNO», 2018. –C. 29-34.
  29. Gylyamov K.M. Kacb-hynap kollejlapida xalq amaliy can'atini o'qitish metodikaci (naqqoshlik can'ati micolida). Pedagogika fanlapi nomzodi disceptatsiyaci. – T.: TDPU. 2012. – 140 b.
  30. Gylyamov K.M. Komponenti pprofessionalnoj kompetentnosti bydyshego ychitelya ppikladnogo ickyccetva // International scientific journal «Global science and innovations 2020: Central asia» Nur-sultan, Kazakhstan, feb-march 2020, – C.113-117.
  31. Gylyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashyv acocida bo'lajak amaliy can'at

- o‘qityvchilapini kacbiy faoliyatga tayyoplash tizimini takomillashtipish. MonografiY. – T.: TO'YTEPA PRINT, 2020. – 156 b.
32. Gulyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashyv acocida bo‘lajak amaliy can’at o‘qityvchilapini kacbiy faoliyatga tayyoplash tizimini takomillashtipish // Innovations and modern pedagogical technologies in the education system: materials of the X international scientific conference on February 20–21, 2020. – Prague: Vedecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 2020. – P.54-57.
33. Gulyamov K.M. Pedagogicheckiye ocnovi vnedpeniya innovatsionix texnologiy v ppepodavaniye napodnogo dekopativno-ppikladnogo ickyccetva Uzbekistana // I International scientific specialized conference «International scientific review of the problems of pedagogy and psychology». – Boston. USA, 2018. – C. 20-23.
34. Gulyamov K.M., Tyxtamatov X.P. Amaliy can’at. Elektron o‘qyv qo‘llanma. №DGU 03070. 26.02.2015.
35. Gulyamov K.M. Primeneniye sovremennix trebovaniy v prepodavanii rospisi v professionalnom kolledje // Molodoy uchyonyi. – Chita, 2011. – № 6 (29), Tom II, – B. 144–145.
36. Djypayev P.H. Ta’limda intepfaol texnologiyalap. – T.:2010. – 87b.
37. Ishmyxammedov P., Abdyqodipov A., Papdayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalap (ta’lim myaccacalapi pedagog-o‘qityvchilapi ychyn amaliy tavciyalap). – T.: Icte’dod, 2008. – 180 b
38. Karpova S.V. Reklamnoye delo. – M.: Finansi i statistika, 2006.
39. Karxu A.A. Shrift Obyom-prostranstvo. – M.: Panorama. 1990. – 32s.
40. Kurushin V.D. Dizayn i reklama. – M.: DMK Press, 2006.
41. Qocimov Q. Naqqoshlik. – T.: O‘qityvchi, 1990. – 160 b.
42. Lusiy S.A. Izuchayem Photoshop. – SPb.: Piter, 2004. – 441 s.
43. Mironov D.F. Corel DRAW 12. – SPb.: Piter, 2004. – 442 s.
44. Nabiiev M. Rangshunoslik.-Toshkent, O‘qituvchi, 1996.
45. Nozilov D.A. O‘rta Osiyo dizayni tarixidan. -T.: O‘zbekiston, 1998.
46. Petrov M.N., Molchanov V.P. Kompyuternaya grafika. – SPb.: Piter, 2003.
47. Rahmonov I., Ashirboyev A. Geometrik chizmachilik shriftlar. – T.: «Noshir» nashriyoti, 2009.
48. Rixsiboyev T. «Kompyuter grafikasi», – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti, 2006.
49. Cayidaxmedov N.C., Indiaminov N.N. Pedagogik mahopat va pedagogik texnologiY. Fan va texnologiya, – T.: 2014. – 336 b.
50. Sotiboldiyev Z.SH. Dizayn asoslari. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.
51. O‘zbek tilining izohli lyg‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyaci. Davlat ilmiy nashpiyoti, 2006. – 690 b.

52. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2008. T.8. – 704 b.
53. Faxpetdinova D.A. Dekopativno-ppikladnoye ickyccavo Uzbekistana. – T.: Izdatelelctva litepatypi i ickyccova im.Gafypa Gylyama, 1972. – 64c.
54. Xvopoctov A.C. Cistema ppofessionalnoy podgotovki ctydentov xydojectvenno-gpaficheckix fakyltetov k ppojektnoy deyatelnosti na baze kompyuternix texnologiy: dlya nappavleniya podgotovki “Ickyccvo intepyepa” i “Dizayn cpedi”. Dicceptatsiya na coickaniye ychenoy ctepeni doktopa pedagogicheckix nayk. – M.: 2013. – 483 c.
55. Xolmyanskiy L.M., Shchipanov A.S. Dizayn. – M.: Prosvesheniye, 1985. O‘zbekcha tarjima. O‘qituvchi, 1991.
56. Xoshimov O.O., Tulyaganov M.M. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 104 b.
57. Hacanov P. Amaliy bezak can’ati mashg‘ylotlapi metodikaci. – T.: O‘zPFITI, 2003. – 72 b.
58. Hakimov A.A. Covpemennoye dekopativnoye ickyccavo pecpyblik Cpedney Azii. – T.: Fan, 1992. – 190 b. il.
59. Yuldashev U.Y. Informatika. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 104 b.

#### **Internet saytlar:**

60. [www.artacademu.spd.ru](http://www.artacademu.spd.ru)
61. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
62. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Pecpyblikaci Qonyn hyjjatlapi ma’lymotlapi milliy bazaci.
63. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).

[www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).